جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2025-yil 1-yanvar
№ 1(53)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



O‘ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI



Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqini yangi – 2025-yil bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Jahondagi murakkab vaziyatga qaramasdan, o‘tayotgan yil mamlakatimiz uchun qutli va barakali bo‘ldi. Buning uchun har qancha shukrona aytsak, arziydi.

Mehnatkash xalqimizning fidokorona mehnati, siyosiy-ijtimoiy faolligi bilan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi real voqelikka aylanmoqda.

Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylovlar demokratik islohotlarning yangi davriga qadam qo‘yganimizni yana bir marta tasdiqladi.

Yurtimizda yuqori texnologiyali yangi sanoat majmualari, infratuzilma va logistika tarmoqlari, avtomobil va temir yo‘llar barpo etildi. Biznes, IT va turizm sohalari izchil rivojlanmoqda. Aholi daromadlari va turmush sifati oshmoqda.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz, klasterlarimiz ishchi-xizmatchilari mardona mehnat qilib, mo‘l hosil yetishtirdilar.

Yangi uy-joylar, bog‘cha va maktablar, oliygohlar, madaniyat va sport maskanlari qad ko‘tarmoqda. Yurtimiz tobora obod qiyofa kasb etmoqda. Minglab yurtdoshlarimiz Yangi yilni yangi uylarda kutib olmoqda.

Bilimli va shijoatli, navqiron yoshlarimiz ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Ayniqsa, Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida erishilgan rekord natijalar milliy sportimiz tarixida yangi sahifa ochdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, mahallaning roli va ta’siri kuchaymoqda. Ma’naviy yuksalish jarayonlari hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanmoqda.

Global ahamiyatga ega tashabbuslarimiz jahon hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro maydonda O‘zbekistonning raqobatbardosh mamlakat, ishonchli hamkor sifatidagi obro‘-e’tibori yuksalib bormoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi diyorimizdagi barqarorlik, do‘stlik va hamjihatlik natijasidir.

Bugungi shukuhli oqshomda siz, azizlarga, olijanob va bunyodkor xalqimizga halol mehnatingiz, ona yurtga sadoqatingiz uchun samimiy minnatdorchilik izhor etaman.

Qadrli do‘stlar!

Biz 2025-yilga mamlakatimizda **Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili** deb nom berdik. Asosiy maqsadimiz – inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratishdir.

Yangi yilda biznes uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi. Xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish ishlarini qat’iy davom ettiramiz.

Ijtimoiy sohalar, ish haqi, pensiya va stipendiyalar, nafaqalar miqdorini oshirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Farzandlarimizning zamonaviy bilim va kasb-hunar egalari, barkamol bo‘lib tarbiya topishlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, sport sohalariga e’tibor yanada kuchaytiriladi.

Muhtaram faxriylarimiz, xotin-qizlar va yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, ijtimoiy himoya samarasini oshirish ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga ko‘taramiz.

Muxtasar aytganda, **“Inson qadri uchun, inson baxti uchun!”** degan olijanob maqsadni barchamiz birgalikda amalga oshiramiz.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Barchangizni, chet ellardagi vatandoshlarimiz, xorijiy hamkor va do‘stlarimizni bugungi qutlug‘ bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Yangi yil har bir inson, har bir oilaga, jonajon yurtimizga katta-katta yutuq va omadlar olib kelsin!

Hamma ezgu niyatlarimiz ro‘yobga chiqsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

BUGUNNING SHE’RI

UMR SOATLARI

“Chiq-chiq” deydi soat “11”ga
imo qilib mo‘ylovi bilan,
to‘n bichadi har kim umrga
o‘z qarichi – o‘ylovi bilan.
Osmon esa yum-yumaloq vaqt,
har soati uning – bir muchal –
davra qurib, yillar betoqat
ajdar, asov ot bo‘lib uchar.
Uzun tashlab qo‘yadi birday
vaqt arqonni. Kimga baxt kular –
osmonlardan muloyim qorday
yog‘adi oq-oppoq orzular;
kimga esa aksi omadning,
tun qop-qora tomchi tuyilar,
har lahzasi garchi hayotning
oltin yombi bo‘lib quyilar.
Umr otlig‘ bu kalavani
chuvalatib, men-ku qand yeyman,
ko‘ksimdagi ot aravani
quruq olib qochmasa, deyman.
Ko‘z yonadi. Yurak qalqingan...
Mayli, mening yukim bo‘lsin zil,
baxt keltirsin faqat xalqimga
eshik qoqib turgan Yangi yil.

Shuhrat AZIZOV



YURGAN – DARYO

JOZIBADOR SAYYOHLIK MARKAZI



2024-yil davomida O‘zbekistonga jami 8,6 million nafar sayyoh tashrif buyurdi. Ko‘rsatilgan turizm xizmatlari eksporti 2,7 milliard dollarni tashkil etdi. 2023-yilning shu davriga nisbatan ushbu ko‘rsatkich 1,5 barobarga o‘sdi. Sayyohlarning o‘rtacha xarajatlari 2022-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshdi.

(Davomi 3-sahifada)

YILBITIK



SO‘Z DOVRUG‘I

“Jadid” gazetasi bir yil davomida o‘z o‘quvchilarining qo‘liga va qalbiga yetib bordi. Uning sahifalarida chop etilgan juda ko‘plab manbalar O‘zbekistonning yaqin tarixidagi eng qiziq, eng murakkab va shonli jadidlik harakatining mazmun-mohiyatini o‘zida ifoda etdi. To‘g‘risi, jadidlik harakati, xususan, jadid adabiyoti mutaxassislar tomonidan bir asrdan beri o‘rganib kelinadi. Sobiq tuzum zamonidagi tadqiqotlarda ularga turlicha yondashuvlar bo‘ldi. Hukmron davr mafkurasining korchalonlari jadidlik harakatini g‘ayriilmiy ravishda baholadi. Sun’iy tarix yozguvchilar xalqqa jadidlarning haqqoniy g‘oyalarini, orzu-niyatlarini asl holida ko‘rsatmaslikka urindi. Bir necha avlodga o‘z bobolari “dushman” sifatida tanitildi. Necha o‘n yillar haqiqat quyoshining yuzini qora bulut qoplab turdi. O‘ylab qaralsa, jadidlik harakatining asos-negizida millat va Vatan tuyg‘usi, istiqlol va istiqbol qayg‘usi mujassamdir. Shunday g‘oya va fikri uchun jadidlar qamaldi, surgun etildi, qatag‘on qilindi. Gazeta o‘z sahifalarida ayni tarixiy haqiqat bayonini taqdim etdi.

Gazetada bugungi ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniy-maishiy turmush muammolari bilan uyg‘unlashgan jadid allomalarining fikrlari taqdim etib borildi. Xususan, “Yurt qayg‘usi”, “Mutolaa”, “O‘zbek tilim – o‘z tilim”, “Bedorlik” kabi qator ruknlarda berilgan maqolalar ko‘pchilikning e’tiborini tortdi.

(Davomi 2-sahifada)

ONAJONIM – TABIAT

YASHIL BOG‘LAR – KO‘NGILNI CHOG‘LAR



Inson yashashi uchun zarur bo‘lgan ne’matlardan biri – havo. Odamzod kislorodsiz atigi 2–5 daqiqa yashashi mumkin, xolos. Shunday ekan, dov-daraxtlar, hayotbaxsh gulzorlar, qisqa aytganda, musaffo havo – tirikligimiz manbayi. Yurtimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasining amalga oshirilayotgani ortida inson qadri masalasi turibdi.

HAYOTIY EHTIYOJ

Bugungi globallashuv, aholi, sanoat korxonalari ko‘paygan, tabiiy resurslarga putur yetkazilayotgan bir sharoitda ko‘kalamlashtirish hayotiy ehtiyojga aylandi. Atrof-muhitni ko‘z qorachig‘iday asrab, xonadonimiz, hovli-joyimiz, ko‘chamiz, qishlog‘imiz, mahallamiz, shahar-tumanimizni ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish, avlodlarga tabiat ne’matlarini boricha yetkazish – burchimiz. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Yashil makon” umummilliy loyihasi bu – bir yillik tadbir emas.

Mazkur loyiha doirasida respublikada qariyb 50 mln tup nihol o‘tqaziladi. Buxoroda esa 7 millionga yaqin daraxt va buta ko‘chatlari o‘tqazish rejalashtirilgan. Ayni paytda jarayon qizg‘in pallaga kirgan. Mutaxassislarning fikricha, Buxoro iqlimi juda murakkab.

(Davomi 2-sahifada)

JADIDONA SO‘Z DOVRUG‘I

Boshlanishi 1-sahifada.

Darhaqiqat, o‘z zamonida Turkiston muxtoriyatini e’lon qilgan fidoyi millatparvarlar hurriyatni, erkni orzu qilgan edi. Ularning “Haq olinur, berilmas!” degan shiori har qanday zamonda mazlum insonlar kurashi uchun dasturilamal bo‘ladi. Jadidlar o‘z millatining dovrug‘i, shon-shuhrati dunyo xalqlarining ong-u shuuriga yetib borishini xohlashdi. Shuning uchun ular tarixda o‘tgan buyuk allomalarni esga oldi. Shuning uchun ular maktabga, matbuotga, adabiyot va san’at, xususan, teatrga diqqat qaratdi. “Ko‘mak” jamg‘armasi vositasida Turkiston farzandlarini dunyoning eng ilg‘or oliy o‘quv yurtlariga ta’lim uchun yuborishdi. Yuqorida tilga olingan masalalar “Jadid” sahifalarida yil davomida muhokama qilindi. Ayni damda gazetada bosilgan zamonamiz jadidlarining faoliyati ham ibratga munosibdir. Ba’zi fidoyi zamondoshlarimiz kutubxonalar, maktablar barpo etayotgani, xayriyalar bilan mashg‘ulligi – bularning barchasi qalb ko‘zi ochiq davr ziyolisining o‘tgan jadid bobolariga ergashayotganidan darak beradi.

Ta’bir joiz bo‘lsa, ushbu navqiron nashr yil davomida yangilangan fikr uchun, yangilangan dunyoqarash uchun, Yangi O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy muhiti uchun ishladi. “Tabdil” ruknida jadid matbuotidan ko‘chirib bosilgan manbalar bugungi yangicha talqinlar uchun asos bo‘lishi tabiiy. Gazetaning so‘nggi sahifasida berib borilgan Ovsar bilan Mulla Xunobning kalvakona ruhdagi insholari ham gazetxonlarga ma’qul tushgani bor gap.

Menga gazetada berilgan ayrim xorijlik jadidshunoslarning fikr-mulohazalari ham muhim ko‘rindi. Nazarimda, shu yo‘sinda “Jadid”ning dovrug‘i dunyoga taralishi tabiiydir.

Ayni masalada yaqin kunlarga tegishli ikki ma’lumotni aytaman.

Birinchi gapim: dekabr oyi boshlarida Yaponiya va Turkiyada jadidlik borasida tadqiqotlar olib borayotgan olimlar gazeta tahririyatida mehmon bo‘lishdi. Ulardan ayrimlari “Jadid” gazetasida o‘z maqola va suhbatlari bilan qatnashgan ham. Suhbat jarayonida o‘zaro hamkorlik taklif etildi; gazetaning xorijda ham muxbirlari bo‘lishi lozimligi haqida so‘z bordi. Nazarimda, o‘rinli gap. Darhaqiqat, jadidlik hodisasi, jumladan, adabiyoti va madaniyati tarixiga kompleks yondashish uchun nafaqat o‘zbek olimlari, balki xorijdagi jadidshunoslarning ham tadqiqotlari, yozgan kitoblari muhim manba sanaladi. Ularni o‘qish, uqish hamda o‘ziga xos qarashlaridan voqif bo‘lish lozim, albatta.

Ikkinchi gapim: dekabrning o‘rtalarida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tashabbusi bilan tashkil qilingan ikki toifadagi (1-yosh toifasi – 6-, 7-, 8-sinf va 2-yosh toifa – 9-10-sinf) maktab o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan “Jadidlar izidan” tanlovida hakamlar qatorida qatnashib, o‘quvchilarning bilimi, zehni, o‘zini tutishi va jadid allomalari qalbini anglaganidan quvondim. Turli hududlardan g‘olib bo‘lib kelgan ikki yosh toifasidagi yigirma sakkiz ishtirokchidan respublika minbaridagi bahsda saralangani – har toifadan 7 nafardan jami 14 nafar o‘quvchi Germaniyaga yuboriladigan bo‘ldi. Nasib etsa, ular jadid bobolari kabi dunyoga chiqadi. Ular o‘zlarining jadidlar izidan borayotganini chuqurroq anglaydi. “Jadidlar izidan” – bu tushunchada o‘ziga xos shijoat, ilm-ma’rifat, fidoyilik ramzi bor. Ushbu muhtasham ilmiy-adabiy tanlov loyihasi kelgusida ham, albatta, davom ettirilishini istardik. Yoshlar jadidlarimiz dovrug‘ini shu zaylda dunyoga olib chiqadi.

Urg‘ulab takror aytaman, “Jadid” bugun bir yoshga to‘ldi. Oradan yillar, zamonlar o‘tadi. Hech shubhasiz, bu nashr o‘zbek matbuoti tarixi tadqiqida juda noyob bir manba bo‘lajak. Yillik gazetaning barcha sonlarini takror varaqladim. Gazetada chiqqan maqolalar agar jamlansa, bitta emas, bir nechta muhtasham kitob bo‘lishi mumkin, degan fikr xayolimdan ketmadi. Chunki uning har bir soni ziyo ahlining juda muhim mavzularga bag‘ishlangan maqolalari bilan ziynatlangandir.

Jadidlarga doir ezgu rejalar, muhokama uchun mavzular, tiniqlashmog‘i lozim bo‘lgan “loyqalar” hali yetarli. “Jadid” gazetasi yuzaki va chalkash talqinlarga aniqlik kiritishi, milliy jadid harakati haqida xorijda yozilgan manbalarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, taqdim etishi ham kerak.

Demoqchimanki, men o‘tgan yil davomida bu gazeta bilan hamkor va hamnafas bo‘ldim. Yangi yilda ham gazetaga Ismoilbek G‘aspralining “Turkiston ulamosi” asari bilan bog‘liq bir muammo xususida, shuningdek, xorijlik jadidshunos olimlardan ayrimlari ijodidan maqolalar taqdim etish niyatim bor. Men uchun jadidlarning dunyoga chiqish orzusi, dunyo falsafasi va adabiyotidan ta’sirlangani, jahon adabiyotidan qilgan tarjimalari, olamga taniqli allomalar haqida yozgan maqolalari qiziq.

Yaqinda o‘tgan asrning 20-yillarida bosilgan bir manbada amerikalik yozuvchi Edgar Allan Po, boshqa bir maqola tarkibida esa rus munaqqidi Vassarion Belinskiy nomlarini uchratdim. Jadid bobolarimiz L.Tolstoy, R.Tagor, M.Lomonosov, J.Zaydon, M.Lyuter va boshqa qator xorijlik taniqli yozuvchi hamda faylasuflar ijodi bilan qiziqishganidan xabarim bor. Kelgusida shular borasida sevimli gazetamiz uchun maqolalar yozishni ko‘nglimga tugib qo‘ydim.

Yangi yilda barcha ziyo ahli va tamaddun zahmatkashlariga “Jadid” gazetasini muntazam o‘qib borishlarini tilayman.

Bahodir KARIMOV,
professor

FAOL MUALLIFLARIMIZ

MUSHTARIYLAR E’TIROFI



O‘tgan 2024-yil davomida “Jadid” gazetasi bilan yaqindan hamkorlik qilgan mualliflar mushtariylarning onlayn ovozi orqali aniqlandi. Ular quyidagilar:

1. Abdulla A’zam;
2. Oqil Salimov;
3. Akmal Saidov;
4. Rustambek Shamsutdinov;
5. Xurshid Do‘stmuhammad;
6. Ahmadjon Meliboyev;
7. Sharifa Salimova;
8. Sultonmurod Olim;
9. Qutlibeka Rahimboyeva;
10. Olim Davlatov;
11. Ro‘zimboy Hasan;
12. Bahodir Karim.

Faol ijodkorlarimizni mushtariy e’tirofi bilan qutlab, Yangi yilda yangi kuch-g‘ayrat, ilhom va tan-sihatlik tilab qolamiz.

TAHLIL

SUV – TIRIK JON OZIG‘I



Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, dunyo aholisining deyarli qirq foizi toza ichimlik suvi yetishmaydigan hududlarda yashaydi. 2025-yilda sayyoramiz aholisining har o‘ntasidan oltitasi yoki 5 yarim milliard aholi suv tanqisligidan aziyat chekishi mumkin. Bugungi kunda ko‘payib borayotgan yuqumli kasalliklarning 80 foizidan ortig‘i aynan ichimlik suvi sifatining pastligi, sanitariya-gigiyena qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq, deyishmoqda mutaxassislar.

Shubhasiz, dunyo ahlini tashvishga solayotgan bu global muammo insoniyatning osuda, to‘kis hayot kechirishiga, kelajak taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi turgan gap. Va, albatta, suv tanqisligi, xususan, ichimlik suvi yetishmasligi yurtimiz fuqarolarini ham tashvishga solishi tabiiy. Ko‘nglimizni xotirjam qiladigani shuki, suv muammosini hal etish borasida Prezidentimizning tashabbusi bilan mamlakatimiz aholisining toza ichimlik suvi ta’minoti qamrovini oshirish, chekka hududlarda joylashgan aholi yashash punktlarida ichimlik suviga ehtiyojni qondirish bugun davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zotan, O‘zbekistonni zamonaviy, insonning yashashi uchun qulay mamlakat sifatida rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ham aholining hayotiy ehtiyoji bo‘lgan toza ichimlik suvi bilan ta’minlashdir.

2023-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni asosida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlangani va unda belgilangan 5 ta ustuvor yo‘nalishdan uchinchisi aynan suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishga bag‘ishlangani fikrimizning dalilidir.

Aslida ichimlik suvi masalasida keyingi yillarda qator amaliy ishlar qilindi. Bu yo‘lda izlanishlar davom etmoqda. Ya’ni, bunda suv resurslarini samarali boshqarish, ulardan oqilona foydalanish, gidrotexnik inshootlarni ta’mirlash, tiklash, qayta sozlash, sug‘oriladigan yerlarning suv ta’minotini yanada yaxshilash, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilayotir. Jumladan, “O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyati ma’lumotiga ko‘ra, o‘tgan yetti yil ichida aholini ichimlik suvi bilan ta’minlashni yaxshilash uchun 20 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilgan. Ushbu mablag‘ hisobidan ko‘plab suv inshootlari va ichimlik suvi tarmoqlari ishga tushirildi. Shuningdek, o‘tgan davr mobaynida sakkiz milliondan ortiq aholi ilk bor markazlashgan tizimdagi ichimlik suvi bilan ta’minlandi, o‘n to‘rt yarim million aholinining ta’minoti yaxshilandi. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Denov, Sho‘rchi, Sariosiyo, Qumqo‘rg‘on, Jizzax viloyatining Do‘stlik, Paxtakor, Mirzacho‘l tumanlari va Jizzax shahrida yashovchi minglab aholini ichimlik suvi bilan ta’minlashga muvaffaq bo‘lindi. Ayni paytda, respublikamiz bo‘yicha ko‘plab ichimlik va oqava suv tarmoqlari yaratildi, inshootlar qurildi va qayta ta’mirlandi. 2024-yilning o‘zida yurtimizda 827,6 kilometr suv hamda 133,1 kilometr oqava suv tarmoqlari tortildi va to‘rtta suv taqsimlash inshooti qurildi. Mazkur inshootlardagi nasoslarni energiyani tejamkorlik asosida ishlatadigan nasoslarga almashtirish borasida ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Reja asosida Toshkent viloyatining Zangiota, Toshkent, Namangan viloyatining Yangiqo‘rg‘on, Uychi, Namangan tumanlarida suv inshootlarini qurish va qayta ta’mirlash ishlari yakunlanib, tegishli obyektlar foydalanishga topshiriladi. Agar 2017-yilda aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlash ko‘rsatkichi 63 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bugunga kelib mazkur ko‘rsatkich 80 foizga yetdi. O‘tgan davr mobaynida 8,7 million yurtdoshimiz ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanib, 14,5 million aholining ta’minoti yaxshilandi.

Toza ichimlik suvi bilan ta’minlash yo‘lidagi sa’y-harakatlarni tizimli davom ettirish barobarida, so‘nggi yillarda suv tanqisligi kesimida oqava suvlar va ularni qayta tozalash bugunning dolzarb masalalaridan biriga aylanayotganini inobatga olmaslikning iloji yo‘q. Ma’lumki, mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida 2022-yili O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqava suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingandi. Ushbu Qonunni qabul qilishdan maqsad sohadagi muammo va munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bu borada “O‘zsuvta’minot” AJ tomonidan qiymati 2,9 mlrd dollarga teng oltita istiqbolli loyiha bo‘yicha zarur ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, “Toshkent shahrining oqava suv tizimini yaxshilash” loyihasi (1,0 mlrd dollar; SWS Holding kompaniyasi – BAA) asosida Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumani, Surum MFYda quvvati bir million metr kub oqava suv tozalash inshooti hamda 43 km.ga yaqin oqava suv kollektorlari quriladi. Shunday loyihalar bo‘yicha Samarqand viloyati Shirin shaharchasida (“Almar Water” kompaniyasi – Ispaniya), Samarqand shahri tumanlari markazlarida (“Hassam Allam kompaniyasi – Misr), Farg‘ona va Jizzax viloyatlarida xususiy sheriklik asosida (9 ta loyiha, “Midhona kompaniyasi – Saudiya Arabistoni Podshohligi), Navoiy viloyatida (“Alkhorayef Water & Power Technologies”) ko‘plab ichimlik va oqava suv tizimlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish ishlarini bajarish ko‘zda tutilgan.

Hozirda “O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyati tomonidan ichimlik va oqava suv tizimlarini yaratish, bu boradagi ishlarni takomillashtirish yuzasidan muhim izlanishlar olib borilmoqda.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan dalillar va ma’lumotlardan ko‘rinadiki, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, jumladan toza ichimlik suvi bilan ta’minlash kabi masalalar davlatimiz rahbari e’tiboridagi asosiy masalalar qatorida turadi. Bu borada ko‘zlangan loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotir. Shuningdek, loyihaoldi izlanishlari ham jadal davom etmoqda.

Gulchehra UMAROVA

SARHISOB: 2024 -YILDA IRRIGATSIYA

“2024-yil – suv yo‘qotishlarini kamaytirish bo‘yicha zarbdor yil” deb e’lon qilinib, bu yo‘nalishda muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi.

Xususan, irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish, sug‘orish tarmoqlarida suv resurslarining isrofini kamaytirish hamda uni boshqarishni yaxshilash borasida sezilarli natijalarga erishildi.

SARHISOB: 2024 -YILDA EKOLOGIYA

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2024-yilda jami 224 mln tup ko‘chat ekildi. Bahorgi ko‘chat ekish mavsumida respublika bo‘yicha 138 mln tup (prognozga nisbatan – 110,5 foiz), kuzgi mavsumda 86 mln tup ko‘chatlar ekildi (prognozga nisbatan – 107 foiz).

Daraxtlarni sug‘orish maqsadida 253 ta suv chiqarish quduqlari qazildi va 2 906 km uzunlikda sug‘orish tizimlari tashkil etildi.

YASHIL BOG‘LAR – KO‘NGILNI CHOG‘LAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Jazirama yozda harorat tandir taftidan-da baland. Qishi quruq sovuq, izg‘irin. Bunday sharoitda mevali va manzarali nihol turini tanlab olish birinchi masalaga aylanadi.

Buxoro viloyatining iqlim sharoitiga moslashgan chidamli, unuvchan, nisbatan ko‘p kislorod chiqaruvchi, changni saqlovchi, shamolni to‘suvchi va soya beruvchi manzarali daraxtlar har tomonlama foydalidir. Masalan, sadaqayrag‘och sharsimon-oval, zich shox-shabbasi tufayli eng manzarali daraxt turlaridan biri hisoblanadi. Uzoq o‘tmishda bu daraxt nihollari ko‘kalamzorlashtirish maqsadida shahar va qishloqlarga ko‘p o‘tqazilgan.

BO‘LAR ELNING BOLALARI...

Hamjihatlikda hikmat ko‘p. Jondor tumanida ham uzoq vaqtdan buyon foydalanilmay kelinayotgan bo‘z yerlarni obod manzillarga aylantirish ishlariga jiddiy kirishilgan. Mazkur hududda suvsizlikka chidamli 614 ming tup mevali va manzarali dov-daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish ko‘zlangan. Hozirda 400 mingdan ortiq nihol parvarishi boshlab yuborildi.

Manqufi qishlog‘ida joylashgan davlat o‘rmon xo‘jaligiga tegishli maydonda “Jondor bog‘i” tashkil etilmoqda. Hozirgacha 3,5 gektarlik bog‘ga 5 ming tup har turdagi manzarali nihol qadaldi. Shu bog‘ hududida aholining dam olishi va ma’naviy hordiq chiqarishi uchun istirohat bog‘i tashkil etish ham rejalashtirilgan. Ayni paytda bog‘ hududidan oqib o‘tuvchi ariq atrofini obodonlashtirib, musiqiy favvora qurish ishlari boshlandi.

PESHKUDA “ONALAR BOG‘I”

Ko‘kalamzorlashtirish ishlari Prezident ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Peshku tumani ixtisoslashtirilgan maktabida ham keng tashkil etilgan. Bu yerda navqiron avlod qo‘li bilan 300 tupga yaqin katalpa, 100 tup shumtol va yana shuncha qayrag‘och nihollari ekilib, parvarishlanmoqda.

Tumandagi “Navbahor” mahalla fuqarolar yig‘inida “Onalar bog‘i” barpo qilinayotgani ham tahsinga loyiq. Umuman, “Yashil makon” loyihasi doirasida mahalliy iqlimga mos qariyb 2 million tup mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqaziladi.

Bundan tashqari, tuman qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida 1 million 288 ming tup mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazish chora-tadbiri ham ko‘rilmoqda. Fermer xo‘jaliklari, agroklasterlar dala chetlarida ihota barpo qilish maqsadida 1 million 16 ming tupdan ziyod, tokzor-bog‘larni kengaytirish uchun 22,7 ming tup, o‘rmon fondidagi xo‘jaliklar hududida qo‘shimcha 48,6 ming tup, shuningdek, ariq-zovurlar, suv inshootlari bo‘yini ko‘kalamzorlashtirish uchun 11 ming tup mevali va manzarali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekishga kirishgan. Qolaversa, pillachilik tarmog‘ini rivojlantirish, ipak qurti parvarishlaydigan xo‘jaliklarda ozuqa bazasi zaxirasini tayyorlash uchun qo‘shimcha 189,4 ming tup tut niholi o‘tqazish ishlari olib borilmoqda.

“Qoraqalpoq” mahalla fuqarolar yig‘inida va undagi 33-maktabda tuman hokimligi, tashkilot, korxona hamda ta’lim muassasalari xodimlari 2 mingdan ortiq tut niholi o‘tqazishdi. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi xodimlari “Navbahor” va “Qal’a” mahallalarida 600 tupdan oshiq manzarali daraxt va tut ko‘chatlari o‘tqazib, hududni ko‘kalamzorlashtirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Xayrli ishga qo‘shilgan “Hududgaz Buxoro” gaz ta’minoti filiali xodimlari ham ayni kunda “Kamolot” mahallasida 500 tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt niholini o‘tqazishdi..

XALQNI BIRLASHTIRGAN LOYIHA

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Romitan tumanida ham kech kuzgi mavsumda daraxt nihollarini o‘tqazish, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini ko‘paytirib, agrotexnik talab asosida parvarishlashga alohida e’tibor qaratildi. Mahalla va qishloqlarda o‘tgan yilgi mavsumda 1 mln 300 ming tup atrofida ko‘chat o‘tqazilgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkich jami 1 million 600 ming tupga yetkaziladi.

Dono xalqimiz “Bog‘ yaratgan elda aziz” deb bejiz aytmagan. “Yashil makon” kabi xayrli loyihalar esa xalqimizni ulug‘ maqsad yo‘lida birlashtirayotgani bilan ham ahamiyatlidir.

Obid QO‘LDOSH
Buxoro viloyati

BUGUNNING NAFASI

EL SALOMAT – KO‘NGIL TINCH

Insoniy qadriyatlar moliyaviy va maishiy farovonlik bilangina o‘lchanmaydi. Kishi jismonan sog‘lom bo‘lmasa, moddiy boylik hayotning haqiqiy mohiyatini yashiradigan tashqi qobiq bo‘lib qolaveradi. Shu jihatdan har bir ijtimoiy shaxs salomatligi nafaqat uning o‘zi, balki u yashayotgan davlat uchun ham muhimdir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar boshidayoq ilk e’tibor tibbiyot sohasiga qaratilgani ham bejizga emas, albatta.

Xususan, o‘tgan 2024-yilda 33,4 trillion so‘m faqat tibbiyot sohasini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Mana shu mablag‘lar evaziga kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika qilish maqsadida respublika aholisining 95,5 foizi xatlovdan o‘tkazildi va tekshiruvlar natijasida aniqlangan 8,5 million nafar bemorlarning 25 foizi sog‘lomlashtirildi. Tez tibbiy yordam shoxobchalari soni 1766, tez tibbiy yordam brigadalari 2838, zamonaviy reanimatsiya avtoulovlari soni esa 510 taga yetkazildi. 11 ta investitsiya loyihalariga asosan 1246 turdagi tibbiy jihozlar tibbiyot muassasalariga yetkazib berildi.





Hududlardagi tibbiyot birlashmalarining eski binolarni qurish-ta’mirlash ishlariga ham 1,3 trillion so‘m sarflanib, kasalxona va oilaviy shifoxonalarning eskirgan imoratlari to‘lig‘icha yangilandi. Bemorlar shifokorga kirish uchun tor va sovuq yo‘laklarda navbat kutib turmaydigan bo‘ldi. Qabul bo‘limlari elektron tizimga o‘tdi, bemorlarning shifokor nazoratiga kirish vaqtini masofadan turib bemalol belgilash imkoniyatlari yaratildi.

Ayniqsa, bunday ishlar respublikamizning olis tumanlarida amalga oshirilayotgani juda quvonarli hol. Jumladan, Samarqand viloyatining chekka hududlaridan biri – Paxtachi tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli tuman markaziy shifoxonasida ham bugun butunlay boshqacha voqelik. Bu yerda ayni kunlarda 278 o‘rinli kasalxona binosini qayta ta’mirlash ishlari yakuniga yetay deb turibdi. Eng katta rekonstruksiya ishlari jonlantirish bo‘limida amalga oshirildi. Binoning qabul bo‘limiga tegishli qismi yangidan qurildi. Yo‘laklar to‘liq asfaltlandi, shifoxona hovlisi zamonaviy landshaft dizayni asosida ko‘kalamlashtirildi.

Amalga oshirilayotgan ishlar faqat qurilish-ta’mirlash bilan bog‘liq emas, albatta. Islohotlar birlashmada faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlar shijoatiga ham yaxshigina ta’sir o‘tkazdi. Bosh shifokordan tortib oddiy xizmatchigacha birlashmaning moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida “Open budget” ijtimoiy tashabbuslar loyihasi doirasida faol ishtirok etib, qo‘shimcha mablag‘ni qo‘lga kiritdi. Pirovardida MSKT (Multispiral kompyuter tomografiyasi), statsionar va portativ rentgen, sun’iy nafas olish apparatlari, defibrilyatorlar, garstrofibroskoplar, bioximik va gematologik analizatorlar, PZR uskunalari, uchta gemodializ apparati, eng yangi jarrohlik uskunalari va birlashma tarkibidagi hududiy bo‘limlarga 16 dona EKG apparatlari olindi. Elektr bilan bog‘liq muammolar sodir bo‘lmasligi uchun markaziy shifoxonaga 100 kvt. dizel generatori va tashqi zamonaviy quyosh datchiklari ham o‘rnatildi.

– Boshqa tumanlardagi markaziy shifoxonalariga nisbatan bizda diagnostika va davolash salohiyati yuqoriladi, – deydi Paxtachi tuman tibbiyot birlashmasi rahbari Ulug‘bek Suvonov. – Imkoniyatlarimiz kengaydi, yuqori texnologik jarrohlik ishlarini shu yerning o‘zida amalga oshiryapmiz. Endoskopik, laparoskopik, artroskopik operatsiyalarni tajribali shifokorlarimiz o‘tkazmoqda. Eng katta muvaffaqiyatlarimizdan biri esa chanoq son bo‘g‘inini endoprotezlash amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, uchta tumanlararo – qo‘shma shikastlanish va o‘tkir yurak-qon tomir kasalliklari, gemodializ va hushyorxona markazlari faoliyatini ham yo‘lga qo‘ydik. Maqsad – bemorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yanada ko‘proq yaratish, odamlarning dardiga davo istab uzoq masofalarga ovora bo‘lib yurishlarining oldini olish, tibbiy xizmat tezligini va sifatini yaxshilash.

Darhaqiqat, tuman miqyosida xalq salomatligini yaxshilash va buning uchun yetarli qulayliklarni oshirish maqsadida qilinayotgan ishlar o‘z samarasini bermoqda. Hozirgi kunda har ikki ming kishi uchun bitta tibbiyot brigadasi faoliyat yurityapti, tibbiyot klasterlari ishlamoqda. Birlashmaga qarashli beshta oilaviy poliklinika, o‘n bitta shifokorlik punktlari internet va lokal tarmoqlar bilan ta’minlangan. Birlamchi tibbiy xizmat “Bir qadam” tamoyili asosida tashkil etilmoqda.

SARHISOB:
2024-YILDA TIBBIYOT

2024-yilda tibbiyot sohasida kasalliklarni erta aniqlash va profilaktika qilish maqsadida yurtimiz aholisining 34,8 mln nafari (95,5 foiz) tibbiy xatlovdan o‘tkazilib, aniqlangan 8,5 mln nafar bemor sog‘lomlashtirildi.

Sog‘liqni saqlash tizimida “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” axborot tizimlari takomillashtirilib, “Yagona tibbiyot axborot tizimi” (DMED) joriy etildi. Mazkur tizim Toshkent shahri, Sirdaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi birlamchi bo‘g‘in muassasalarida to‘liq ishga tushirildi.

Shu o‘rinda shifokorlarning tibbiy bilimi va malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo‘nalishlarini transformatsiya qilish masalasida ham olg‘a qadamlar qo‘yilayotganini aytib o‘tish joiz. 2023-yilda ikki nafar shifokor jarrohlik va travmatologiya-ortopediya yo‘nalishi bo‘yicha Novosibirsk shahrida o‘quv kurslarida tajriba orttirib qaytgan bo‘lsa, o‘tgan yili ulardan yana o‘n nafari Belorussiya respublikasining nufuzli klinikalariga malaka oshirish uchun yuborildi. Qirqdan oshiq oilaviy shifoxona xodimlari Samarqand davlat tibbiyot universitetining kardiologiya kafedrasi EKG kursida qayta o‘qitildi.

Jonlantirish bo‘limida tashqaridan kelayotgan chang, infeksiya va har xil turdagi viruslarning ushlab qolinishi, bemorlar steril holatda saqlanishi uchun asseptik havo almashinuv sistemasi o‘rnatilgan. Mikroblarni o‘ldirib turuvchi ultrafiolet lampalar yo‘laklar bo‘ylab qo‘yilgan. Devor har tomondan antibakterial qoplamalar bilan qoplangan. Har bir bemorning bosh tarafida kardiomonitor, xonalarda esa kislorod tarqatuvchi apparatlar ishlab turibdi.

– Gemodializ jarayoni to‘rt soat davom etadi, – deydi bo‘limning navbatchi hamshirasi Go‘zal Maxfiratova. – Yillar davomida bemorlar ana shu to‘rt soatlik muolaja uchun kasal holiga uzoq yo‘l bosib, viloyat markazi yoki Kattaqo‘rg‘on, Navoiy shaharlariga borishiga to‘g‘ri kelar edi. U yerda ham navbat kutib qiynalishardi. Buyragi ishlamagan odamning organizmi zaharlanaveradi. U har ikki-uch kunda buyrak tozalatib, qonini yuvdirib turishga majbur. Tez-tez muolajaga qatnashning o‘zi bo‘ladimi? Bo‘limning tashkil qilingani bemorlarimiz og‘irini yengil qildi, xarajatini kamaytirdi. Dori-darmonlar ham to‘lig‘icha davlat hisobidan kasalxonaning o‘zida beriladi, bemor ovora bo‘lmaydi.

Ha, xalqimizning mana shunday e’tiborga ehtiyoji bor edi. Ayniqsa, tanasiga kirgan dard bilan olishib, quvvati pasaygan xasta insonlarning mushkuli oson bo‘layotgani har qancha ta’rifga arziydi. Yuqorida sanab o‘tganlarimizdan tashqari respublika bo‘ylab “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona” axborot tizimlari ham takomillashtirildi. “Yagona tibbiyot axborot tizimi” (DMED) joriy qilindi. Shu yilning o‘zida Toshkent shahridan boshlab qo‘llanilishi rejalashtirilgan “elektron retsept tizimi”ni joriy etishga qaratilgan pilot loyihalar tasdiqlandi. Unga ko‘ra bemorlarga dori vositalari dorixonalardan to‘g‘ridan to‘g‘ri bepul tarqatiladi. Muhimi ham shu, bu elning joni sog‘, ko‘ngli tinch bo‘lsin!

Muhayyo PIRNAFASOVA

Boshlanishi 1-sahifada.

JOZIBADOR SAYYOHLIK MARKAZI

SARHISOB:
2024-YILDA TURIZM

Buxoro viloyati kesimida tahlil qilinganda, o‘tgan yilning so‘nggi 9 oyi mobaynida viloyatga 1 million 118 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 16,8 foizga ko‘pdir. Eksportda turistlarga xizmat ko‘rsatishdan olingan daromad 279,1 million AQSh dollarga yetdi.

Ma’lumki, Buxoro noyob tarixiy obidalari, me’moriy ansambllari va ko‘p asrlik madaniyati bilan mashhur. Qadimiy shahar YUNESKOning Butunjahon merosi obyekti sifatida o‘z sayyohlik infratuzilmasi bilan butun dunyo sayyohlarini doim qiziqtirib kelgan. Xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshlikni ta’minlash va sayyohlar sonini sezilarli darajada oshirish uchun esa, transport infratuzilmasini takomillashtirish, yo‘llarni rekonstruksiya qilish va to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar sonini ko‘paytirish muhim o‘rin tutadi. Ayni jihatlarga qaratilgan e’tibor tufayli viloyatda turizm sohasida salmoqli yutuqlarga erishildi.

Darhaqiqat, 2024-yili viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida sayyohlik tajribasini yaxshilash, xorijiy va mahalliy mehmonlar tashrifini rag‘batlantiruvchi tashabbuslar doirasida keng ko‘lamli ishlar qilindi. Xususan, ichki turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi bo‘yicha boshqa viloyatlardan 3,1 million kishi tashrif buyurdi. Mahalliy aholiga o‘z mintaqasining tarixiy merosini chuqurroq tushunish imkonini beruvchi ma’rifiy sayohatlar va madaniy tadbirlarni o‘z ichiga olgan mazkur dastur tarixiy joylarga, shuningdek, etnik-madaniy turizmni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ekskursiyalar tashkil etishga turtki berdi.

Yangi turar joy binolarini barpo etish va transport infratuzilmasini yaxshilash, ko‘rsatilayotgan turizm xizmatlari hajmini oshirish borasidagi sa’y-harakatlar ham Buxoroning turizm markazi sifatida jadal rivojlanayotganidan dalolat. Bunday chora-tadbirlar viloyat iqtisodiyotiga uzoq muddatli ijobiy ta’sir ko‘rsatib, madaniy-tarixiy merosini asrab-avaylashga xizmat qiladi.



Xalqaro sayyohlik oqimining ko‘payishi mintaqaning madaniy va tarixiy merosini targ‘ib qilish bo‘yicha olib borilayotgan maqsadli sa’y-harakatlar samarasidir. Ayniqsa, tarix va etnik an’analarga asoslangan yangi sayyohlik mahsulotlari turi ko‘paygani sabab xorijlik sayyohlarda mintaqaga qiziqish yanada kuchaydi. Abu Ali ibn Sino tug‘ilib o‘sgan Afshona qishlog‘ida barpo etilgan “Etnik turizm shaharchasi” ana shunday loyihalardan biri bo‘ldi. Xullas, puxta o‘ylangan strategiya va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga kompleks yondashuv Buxoroning xalqaro sayyohlik markazi sifatidagi mavqeyini mustahkamlamoqda. Xorijiy va mahalliy sayyohlar sonining ortib borayotgani mintaqaning iqtisodiy, ham madaniy ravnaqiga xizmat qilib, uni uzoq muddatli sarmoyaviy va qisqa muddatli turistik sayohatlar uchun jozibador qiladi.

Turizm industriyasining hozirgi tendensiyalari madaniy, ko‘ngilochar va ekologik jihatlarni o‘zida mujassam etgan turistik mahsulotlarni yaratishga kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu bois sayyohlarning turli toifalari ehtiyojlarini qondiradigan noyob infratuzilmani yaratish va sayyohlarning qiziqishini kuchaytirishga qaratilgan loyihalarga e’tibor qaratilmoqda. Gastronomik ko‘chalar va etnik aholi punktlari barpo etilyapti. Bunday aholi punktlarida sayyohlar mahalliy urf-odatlar, hunarmandchilik va qadimiy tangalar, mehnat qurollari va artefaktlar bilan tanishishlari mumkin. Milliy taomlar namoyish etiladigan gastronomik ko‘chalar esa sayyohlarga O‘zbekiston pazandalik an’analari bilan yaqindan tanishish imkonini bermoqda. O‘zbek milliy taomlarini tayyorlash bo‘yicha muntazam tashkil etilayotgan festival va mahorat saboqlari sayyohlarning qiziqishlarini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekistonda ekoturizm va madaniy turizmni rivojlantirish barqaror turizmning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Mamlakatning tabiiy boyliklari, jumladan, tog‘li hududlar, qo‘riqxonalar va cho‘llar ekoturizm yo‘nalishlari uchun asos bo‘ladi. Bu nafaqat turizmni rivojlantirish, balki tabiiy landshaftlarni asrab-avaylash, ekologiya va barqaror turizmga bo‘lgan qiziqishni ham oshiradi.

Turizm infratuzilmasini kengaytirish va turli toifadagi sayyohlar uchun qulayliklar yaratish maqsadida mintaqada yangi ko‘ngilochar hududlar, jumladan, akvaparklar va boshqa turistik majmualar barpo etilmoqda. Masalan, To‘dako‘lda bolalarga mo‘ljallab qurilayotgan akvaparkda suv attraksionlari, basseynlar, dam olish va ovqatlanish joylari bo‘ladi. Bundan tashqari, 60 dan ortiq yangi joylashtirish obyektlari, jumladan, mehmonxonalar, hostellar va isitiladigan mehmon uylarini qurish rejalashtirilgan.

2025-yilda viloyatda umumiy qiymati 106,4 million dollarlik 44 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shundan 20 million dollari to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. Bu loyihalar qatorida 37 ta mehmonxona, 1 ta hostel, 3 ta motel, 1 ta restoran, ekoturizm markazi va yirik turistik savdo majmuasi barpo etiladi.

Bunday yirik xorijiy investorlarni jalb qilish nafaqat turizm infratuzilmasini yaxshilashga, balki mehmonxona va restoran biznesiga ilg‘or texnologiyalarni joriy etishga munosib hissa qo‘shadi. Bu esa sayyohlarga xizmat ko‘rsatish sifatini sezilarli darajada yaxshilab, xalqaro va ichki turizmni yanada rivojlantiradi.

Tahlillarga ko‘ra, mazkur loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 2025-yilda Buxoro viloyatiga tashrif buyuradigan sayyohlar soni 6,1 million kishiga yetishi, turistlar ko‘payishi va infratuzilmaning yaxshilanishi evaziga turizmdan tushadigan daromad 550 million dollargacha oshishi kutilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, kiritilayotgan investitsiyalar yangi ish o‘rinlari yaratish, xizmatlar sifatini yaxshilash va sohadan tushadigan daromadlarni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu loyihalar mamlakatni xalqaro sayyohlar uchun jozibador manzilga aylantiradi va turizm xizmatlari eksportini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Ushbu tashabbuslarning amalga oshirilishi sayyohlarning yurtimizda o‘rtacha bo‘lish muddatini 4 kundan 5,5 kunga oshirishga, qariyb 10 ming yangi ish o‘rni yaratishga, turizm sanoati va unga aloqador tarmoqlarda 80 ming kishini ish bilan ta’minlashga olib keladi. Natijada Buxoro nafaqat jozibador sayyohlik maskaniga, balki mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan, uning uzoq muddatli ravnaq topishi uchun sharoit yaratadigan muhim xalqaro turizm markaziga aylanadi.

Olim ASTANAQULOV,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi mudiri, professor

TILAKLAR



Muhammad AHMEDOV,
O‘zbekiston Qahramoni

“DEHQONKI, DONA SOCHAR...”

Asli, bolaligimdan yer bilan tillashib kelyapman, umrim tuproq kechib o‘tmoqda. Bitta bug‘doy, bitta chigit uchun yer tishlab, loy changallagan davrlarimiz bo‘ldi. Lekin bugun noroziligim yo‘q. Mehnatimdan rizq keldi, elga tanildim. Shu kunlari bolalikda o‘qiganim hazrat Navoiyning so‘zlari tez-tez yodimga tushadigan bo‘lib qolgan: “Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar...” Shukrki, o‘zigagina emas, butun elga rizq ulashuvchi asl dehqonlar qadr topgan zamonlarga yetishdik.

Og‘zini to‘ldirib, bozorlarimiz to‘kin, deydiganlarning aksariyati bu to‘kinlik ortida dehqon-u fermerlarning mashaqqatli mehnati yotganini ba’zan o‘ylamaydi. Lekin dehqonning o‘zi mehnatining mashaqqatidan ko‘ra, yaratilgan imkon-u sharoitdan foydalanib qolishni ko‘zlayapti. Chunki yildan yilga daromadi ortib, yetishtirgan mahsuloti ichki bozorlardan toshib, xorij mamlakatlariga eksport bo‘lmoqda. Eng muhimi, u mehnati munosib qadr topganidan xursand.

Bugun shunchaki dehqon bo‘lishning o‘zi kamlik qiladi, fermer bo‘lish tadbirkor bo‘lish ham demakdir. Biz 2024-yilda fermer xo‘jaligimizda dehqonchilikka yangi agrar texnologiyalarni joriy qilib, yoqilg‘i, mineral o‘g‘it sarfini tejab, texnika va ish kuchini kamaytirishga erishdik. Natijada olayotgan foydamiz keskin ortdi. Yuz gektar yerdan tejalgan 362 million so‘m mablag‘ yonimizga qoldi. Bu mablag‘ ishchilarimizning oilasiga to‘kinlik, mahallamizga farovonlik boisi bo‘lmoqda.

“Jadid” gazetasini yurtimizda yuz berayotgan shunday olamshumul ishlarni xolis va haqqoniy yoritgani uchun ham muntazam o‘qib boraman. Yangi yilda gazeta xodimlariga ham, ayniqsa, uning o‘quvchilariga uzoq umr, farovon turmush, ish va ijodiga baraka tilayman.



Vali Savash YELOK,
Anqara Hoji Bayram Vali universiteti professori:

Assalomu alaykum, muhtaram “Jadid” gazetasi jamoasi va qadrli gazetxonlar, barchangizni Yangi yil bayrami bilan muborakbod etaman.

To‘g‘risi, “Jadid” men uchun ehtiromga munosib bir minbarga aylandi. O‘tgan 2024-yilda Toshkentga ikki marta xalqaro ilmiy anjumanga bordim. O‘shanda hamsafar professor yo‘ldoshlarim bilan birga “Jadid” gazetasi tahririyatida mehmon bo‘ldik. Bosh muharrir Iqbol Mirzo, tahririyat xodimlari bilan fikr almashib suhbatlashdik.

“Jadid”da o‘zbek shoiri Botu haqida maqolam bosildi. Bundan xursand bo‘ldim. Darvoqe, gazetada bizning Hoji Bayram Vali universiteti professori, jadidshunos olim Zaynobiddin Abdirashidovning bir necha jiddiy maqolasi yoyinlandi. Shu zaylda, demoqchimanki, bizning ilmiy-pedagogik jamoa bilan siz “Jadid”lar orasida o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Bu adabiy-ilmiy hamkorlik – robitalar bu yilda yana ham mustahkam bo‘lishiga ishonaman.

Yangi yilingiz qutlug‘ bo‘lsin, azizlar!

TADQIQOT

XUN EVAZIGA KELTIRILGAN QO‘LYOZMA

yoxud “g‘alati mashhur”lardan biri xususida



HAQ DA’VOSIDAGI YOLG‘ON

Xuddi rost so‘zdek xalqning inonchiga aylanib qolgan yolg‘onlarga nisbatan qo‘llanadigan “g‘alati mashhur” degan ibora bor. Bu ibora ko‘pincha taniqli shaxslar va tarixiy voqea-hodisalarga oid noto‘g‘ri ma’lumotlar, mish-mishlarning omma orasida keng yoyilib, haqiqat to‘nini kiyishiga nisbatan qo‘llaniladi.

Qalamga olmoqchi bo‘lganimiz ilmiy muammo ham ana shunday “g‘alati mashhur”lardan. Masalaga teranroq nazar solish uchun ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan ayrim dalillarni keltirmoqni joiz deb bildik: atoqli navoiyshunos olim, professor Hamid Sulaymon 1968-yili Alisher Navoiyning 1466-yili ko‘chirilgan devoni qo‘lyozmasining faksimil nashrini “Ilk devon” nomi bilan nashr ettiradi. Ushbu qo‘lyozma Sankt-Peterburgdagi davlat xalq kutubxonasida 564-raqam bilan saqlanadi. Qo‘lyozma rus yozuvchisi va diplomati Aleksandr Griboyedovning xuni bahosiga Eron shohi tomonidan 1829-yili sovg‘a qilingan ekan.

Hamid Sulaymonning fikricha, “Hirot badiiy qo‘lyozmalarining shoh kitoblaridan biri bo‘lgan bu devon Navoiy zamonasining buyuk san’atkor xattoti, “xattotlar sultoni” deb shuhrat qozongan Sultonali ibn Muhammad Mashhadiy (836–926/1432–1520) tomonidan 870/1465-1466-yili ko‘chirilgan. Binobarin, mazkur devon shoirning 25 yoshgacha ijod qilgan she’rlaridangina tashkil topgandir”.

Ushbu devonning badiiyati, Navoiy lirikasining xronologiyasidagi o‘rni va ahamiyati haqida Hamid Sulaymon, Porso Shamsiyev, Yoqubjon Is‘hoqov, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug‘afurov, Dilorom Salohiy, Nodir Ramazon, Aftondil Erkinov, Rustam Jabborov singari olimlarning tadqiqotlarida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Ayni chog‘da, asosiy savol ochiq qolmoqda – fan tarixida “Ilk devon” nomi bilan mashhur bo‘lgan qo‘lyozma haqiqatan ham Navoiyning muxlislari tomonidan tartib berilgan, ammo shoirning o‘zi ko‘rmagan ilk devonimi? Ushbu devonda Navoiy yigirma besh yoshgacha yaratgan lirik asarlar jamlangani rostmi?

Bunday zalvorli savollarga bir maqolada batafsil javob berish amrimahol. Katta tadqiqotlarga mavzu bo‘ladigan mazkur masalaga oydinlik kiritish uchun bu galcha qisqa chizgilar bilan kifoyalanamiz.

TILDAN DILGA KO‘CHGAN SATRLAR

Alisher Navoiy aynan qaysi g‘azallarini o‘spirinlik va yigitlik chog‘ida yaratgani haqida aniq xulosaga kelish mushkul. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga qat’iy tartib asosida kiritilgan 2600 ta g‘azaldan ayrimlari haqida muallifning o‘zi boshqa asarlarida ma’lumot bergan.

Jumladan, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da shoir umri davomida “ota masobasida” (o‘rnida) – yuksak maqomda bo‘lgan Hasan Ardasher bilan ilk uchrashuvi Hirotda kechganini xotirlaydi. Mazkur diydorlashuv Sulton Ibrohim Mirzo Hirotda hukm yuritgan yilga to‘g‘ri kelganini qayd etib o‘tadi. Abdurazzoq Samarqandiy “Matla’i sa’dayn va majma’i bahrayn” asarida shahodat berishicha, Ibrohim Mirzo 1456-yili qisqa muddat Hirotni egallagan. Bu vaqtda Navoiy endi o‘n besh-o‘n olti yoshga to‘lgan bo‘lsa hamki, uning g‘azallari tillardan tillarga, dillardan dillarga ko‘cha boshlagan ekan: *“Chun ul avqotda faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutub erdi, alar dag‘i iltifot qilib, ba’zi abyotni ko‘p o‘qurlar erdi va majolisda xushvaqt bo‘lurlar erdi.*

Ul jumladin bu matla’durkim, fard:

Furqatingdin za’faron uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski bag‘rimdin erur pargolalar.

Yana bir bukim:

Ul parivashkim bo‘lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqdin olam manga hayron-u men hayron anga.

Bu baytni dag‘i ko‘p o‘qurlar edikim:

Labing ko‘rgach iligim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurmen.

Masnaviydin bu bayt yodlarida erdi:

Har nechaki puxta bo‘lsa tadbir,
Berur anga go‘shmol taqdir.

Navoiy “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida aziz zamondoshi bilan bog‘liq xotiralarini eslash asnosida Abu Said Mirzo davrida Mashhadda bo‘lgan qiziqarli voqeani keltiradi. Tabib Mavlono Abdussalom Sheroziy mafosil (bod, revmatizm) bilan og‘rigan yosh Alisherga muolaja uchun uqalash usulini tavsiya qiladi. Tabobatdan yaxshi xabardor va o‘sha kezlar Mashhadda bo‘lgan Pahlavon Muhammad Navoiyga mehribonlik ko‘rsatib, bu ishni o‘zi bajarishini aytadi. Suhbatlardan birida u yosh shoirdan turkiy qalam ahlidan qay birini ma’qul ko‘rishini so‘raydi. Navoiy avvaliga barcha shoirlarni hurmat qilishini aytadi. Lekin Pahlavon Muhammad ular orasida tafovut bor, takallufni qo‘yib, o‘zingizga eng ma’qulini ayting, deb qistagach, Navoiy “Lutfiy – bu qavmning ustodi”, deya javob beradi. Pahlavon Muhammad nega Sayid Nasimiyni esga olmaganini so‘raydi. Navoiy Lutfiyning majoz yo‘sinida she’r aytishi, Nasimiyning she’rlari esa haqiqat tariqida bitilganini bayon etadi. Shunda Pahlavon Muhammad Nasimiyning she’riyati zohiran majoz, ma’no jihatidan esa haqiqat yo‘sinidadir deydi va o‘sha kuni Navoiy tomonidan tongda yozilib, hali hech kimga ko‘rsatilmagan g‘azalni yoddan o‘qiydi, maqta’dagi “Navoiy” taxallusi o‘rniga “Nasimiy”ni qo‘yadi:

Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko‘rsa ranj,
Yo‘q ajab, nevchunki, xom etgan tama’ ranjur erur.

Navoiy bu holdan hayratga tushadi. G‘azal yozilgan qog‘ozini tekshirib ko‘radi – varaq o‘z joyida turgan edi. Ertasi tongda Pahlavon Muhammad uch-to‘rt kishini o‘sha g‘azalni o‘n ikki yil burun Abulqosim Bobur majlisida “tinglab, yod olgani”ni isbotlash uchun guvoh o‘laroq keltiradi. Boz ustiga, ular ham g‘azalni yoddan aytib beradilar. Navoiyning taajjubi chandon ortadi.

Keyin ma’lum bo‘ladiki, Pahlavon Muhammad o‘sha kuni yosh shoirning liboslari orasidan yangi g‘azal qo‘lyozmasini topib, yod oladi va yana joyiga qo‘yadi. So‘ng esa boyagi hazil sahnasini uyushtiradi.

Navoiyning yoshlik davri ijodiga oid yana bir manba – Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridir. Unda keltirilishicha, o‘z davri malikulkalomi bo‘lgan Mavlono Lutfiy o‘smir Navoiyning “Orazin yopqoch...” deya boshlanuvchi g‘azalini eshitib, “Agar imkon bo‘lganida o‘n ming baytdan ortiq bo‘lgan turkiy va forsiy she’rlarim devonini ushbu baytga alishtirardim”, degan ekan.

Navoiyning o‘zi bergan guvohlikka asoslanib, biz beshta g‘azalni qat’iy ravishda shoirning o‘smirlik davriga mansub deb bilamiz. Ushbu g‘azallar ilk rasmiy devon – “Badoye’ ul-bidoya”da quyidagi tartibda keltirilgan:

Ul parivashkim, bo‘lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqidin olam manga hayron-u, men hayron anga.
(23-g‘azal).

Orazin yopqoch, ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,
O‘ylakim paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh.
(285-g‘azal).

Furqatingdin za’faron uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar.
(140-g‘azal).

Har qayon boqsam ko‘zumg‘a ul quyoshdin nur erur,
Har sari qilsam nazar, ul oy manga manzur erur.

Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko‘rsa ranj,
Yo‘q ajab, nevchunki xom etgan tama’ ranjur erur.
(179-g‘azal).

Meni bedil sanga jon o‘ynamoq birla yaraydurmen,
Bale, sen tiflni bu tuhfa birla arg‘adaydurmen.

Labing ko‘rgach, iligim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, bolni tutmayin barmoq yalaydurmen.
(525-g‘azal).

UCH DALIL

Sanab o‘tilgan g‘azallardan faqat “Ul parivashkim bo‘lubmen zor-u sargardon anga” misrasi bilan boshlanadigan “Ilk devon”dan o‘rin olgan.

Birinchi dalil: Navoiyning yoshlik davrida yozilgani qat’iy aniq bo‘lgan besh g‘azalidan faqat bittasi “Ilk devon”ga qo‘shilgan, qolgan g‘azallar el aro shuhrat topganiga qaramay, unga kiritilmagan.

Mazkur g‘azal “Badoye’ ul-bidoya” hamda “G‘aroyib us-sig‘ar”dagi matnlardan biroz farq qiladi. Quyida tafovutli baytlarni keltirib o‘tamiz:

To‘rtinchi bayt:

Novakining parru paykonida rangin tus erur
Yoki ko‘nglumdin chu parron o‘tti yuqmish qon anga.
(“Badoye’ ul-bidoya”, 23-g‘azal).

Novakining parru paykoni-u (?) rangin to‘r erur,
Yoki ko‘nglumdin chu parron o‘tti, yuqmish qon anga.
(Ilk devon, 3-b).

Oltinchi bayt:

Xizri xattingning ajab yo‘q sabzu xurram bo‘lmog‘i,
Labbalab chunkim berur su chashmayi hayvon anga.
(“Badoye’ ul-bidoya”, 23-g‘azal).

Xizr xattingning ajab yo‘q sabzu xurram bo‘lmog‘oy,
Lab-balab chunkim suv berur chashmayi hayvon anga.
(Ilk devon, 3-b).

Yettinchi bayt:

Ey xusho, mug‘ dayrikim, rif’at bila ziynatda bor,
Mehr anga bir shamsavu ko‘k toqidur ayvon anga.
(“Badoye’ ul-bidoya”, 23-g‘azal).

Ey xusho, mug‘ dayr ko‘yikim, ziynat bila rif’atda bor,
Mehr anga bir shamsa, ko‘k toqidurur bir ayvon anga.
(Ilk devon, 3-b).

Navoiy qit’alaridan birida Sultonalining qalami taqdir qalamidek xatosiz yozadi, deya ta’rif bitgan:

Qiblat ul-kuttobkim, derlar ani Sulton Ali,
Kim qazo qilki masallik xomasi yozmas g‘alat.

Qaysi qit’amniki yozdi bordi andin she’rlik,
El solurlar juzvdong‘akim, erur bir qit’a xat.
(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 47-qit’a).

Boshqa bir qit’ada esa, xatolar ila ko‘chiruvchi kotiblarga “Yuzin nomasidek qora aylabon, Qalamdek boshin dag‘i yormoq kerak” deb tanbeh beradi.

Ikkinchi dalil: Navoiy chalasavodlik va matnni xato ko‘chiruvchilarga nisbatan murosasiz bo‘lgan. “Ilk devon” matnida esa imloviy xatolar juda ko‘p. Bu esa u Sultonali Mashhadiy tomonidan kitobat qilingani haqidagi fikrning haqqoniyligiga shubha soyasini soladi.

“Ilk devon”dagi g‘azallardan 363 tasi “Xazoyin ul-maoniy” (“G‘aroyib us-sig‘ar” – 99, “Badoye’ ul-vasat” – 117, “Favoyid ul-kibar” – 1470), 114 tasi “Badoye’ ul-bidoya” (73) va “Navodir un-nihoya” (41), shuningdek, ruboiylardan 9 tasi “G‘aroyib us-sig‘ar” va 29 tasi “Badoye’ ul-bidoya” tarkibiga kirgan.

Demak, “Ilk devon”dagi lirik asarlarning asosiy qismi shoirning o‘rta yosh va keksalik davridagi ijodini ifoda etuvchi rasmiy devonlaridan joy olgan. Shoir ijodining 1480-1481-yillargacha bo‘lgan davri majmuasi hisoblanmish “Badoye’ ul-bidoya” bilan “Navodir un-nihoya”da “Ilk devon”dagi 363 ta g‘azaldan faqat 114 tasi uchrashi esa alohida qiyosiy tahlilni talab etadi.

Misol tariqasida “Ilk devon”ning 103a-sahifasidagi g‘azalga e’tibor qarataylik:

Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar Navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yoshil xil’at, mening sarvi ravonim ham.

Matla’dan Navro‘z bilan hayit bir kunga to‘g‘ri kelgani hamda bog‘dagi sarv kabi yorining ayyom munosabati bilan yashil kiygani shoirga cheksiz ilhom va quvonch bag‘ishlagani anglashiladi. Milodiy 1471 (hijriy 875) yili Navro‘z bilan Ramazon hayiti bir kunga to‘g‘ri kelganini hisobga olsak, bu g‘azal ham shoirning o‘rta yosh davri lirikasiga mansubligi ma’lum bo‘ladi.

Umuman olganda, Navoiyning 51 ta g‘azali yoshlik davri lirikasiga oid bo‘lgan uchta devon – “Ilk devon”, “Badoye’ ul-bidoya” hamda “G‘aroyib us-sig‘ar”da takror keladi. Shulardan birinchisi quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

Har gadokim, bo‘ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil’at anga.

Mazkur g‘azalni marhum ustozimiz Najmiddin Komilov “Shoh-u darvesh hikmati” maqolasida batafsil tahlil etgan. Jumladan, g‘azalning oxirgi to‘rt bayti izohida bunday yozadi: “Shohlar agar shohlikdan voz kechib, darvesh bo‘lish niyati bo‘lsa, shohlik unga munosib va barqarordir. Bunday niyat shohlarda mavjud emas, faqat shohi G‘oziy – Husayn Boyqaro bu oliy davlatga musharraf bo‘lgan. U shohlarning darveshi-yu darveshlarning shohidir, chunki tashqi ko‘rinishi shoh bo‘lgani bilan, ichki olamiga ko‘ra darveshdir. Ey Tangrim, toki shoh-u darvesh bor ekan, shohdan darveshga xizmat va darveshdan shohga himmatni ayon aylagin. Agar Navoiy faqr haqida so‘zni cho‘zgan bo‘lsa, bu shohning (Husayn Boyqaroning) hukmidandir, bo‘lmasa unda bunday jur’at qayerda edi”.

Tarixdan ma’lumki, shohi G‘oziy – Husayn Boyqaro 1469-yili saltanat taxtiga o‘tirgan. Demak, g‘azal 1469-yildan keyin yozilgan. Bundan “Ilk devon” qo‘lyozmasi ham kolofonida qayd etilgani kabi hijriy 870, milodiy 1465-1466-yili emas, balki keyingi davrda ko‘chirilgani ayonlashadi.

Uchinchi dalil: “Ilk devon”da keltirilgan g‘azallarning ayrimlari shoirning yoshlik davriga mansub emas.

TAFOVUTLAR BOISI NE?

Ko‘p tadqiqotchilar, jumladan, Hamid Sulaymon “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallar xronologiyasi shartli ekanini isbotlagan. Biroq masalaning boshqa jihati ham bor: dastlabki ikki rasmiy devondagi (“Badoye’ ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”) g‘azallar “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi devonlarga joylashtirilayotganda muallif tomonidan jiddiy tahrir qilingan. Tahrir jarayoniga hatto Husayn Boyqaro ham o‘z maslahatlari bilan hissa qo‘shganini Navoiy debochada minnatdorlik ila eslaydi: “Bu devonlarda dag‘i hamul dastur bila maoniy javohiri shohvoridin va alfoz naqsh-u nigoridin va tarkib salosat-u latofatidin va choshniy holat-u haroratidin hech juzve juz’iyyotdin yo‘qturkim, ul hazratning muborak tab’ining anda kulliy daxli bo‘lmamish bo‘lg‘ay”.

Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami”ning oxirgi, yigirmanchi jildida zahmatkash olim Nodir Ramazon tuzgan “Ilk devon”dagi rasmiy devonlarga kirmagan yoki o‘zgarishlar bilan kiritilgan misra va baytlarning ko‘rsatkichi berilgan. Ushbu ilovaga ko‘ra, aksar hollarda “Ilk devon” bilan “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi o‘zgarishlar bir xil. Buni olimimiz “tahrirni tahrir” qilish hodisasi sifatida baholab, ikkita maqola yozdi. Bizningcha esa, mazkur holat “Ilk devon”, aslida “Xazoyin ul-maoniy” tartib berilganidan so‘ng shu kulliyotning g‘azallari asosida tuzilgan terma devon, degan farazni mustahkamlovchi yana bir dalildir.

Atoqli matnshunos olim Porso Shamsiyevning aniqlashicha, Qozon davlat universitetida hirotlik Mahmud kotib tomonidan 1568-yili ko‘chirilgan “Ilk devon”ning yana bir nusxasi saqlanadi. Sankt-Peterburg nusxasidan o‘rin olgan 41 g‘azal va 4 ruboiy Qozon qo‘lyozmasida yo‘q. Ular o‘rniga Navoiyning rasmiy devonlaridan 50 g‘azal va 5 ruboiy qo‘shilgan. Shu bilan birga, Mahmud kotib nusxasidagi tafovutlar “Chor devon”ga to‘liq mos tushadi.

Bundan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: “Ilk devon”ning Sankt-Peterburgdagi nusxasi bilan Qozon shahridagi qo‘lyozma ayni bir to‘plam emas. Balki Qozon nusxasi ham “Xazoyin ul-maoniy”dagi g‘azallardan tarkib topgan mustaqil terma devondir.

Mutafakkir muhiblarida haqli e’tiroz tug‘ilishi mumkin: nega matnshunosligimizning ikki piri – Hamid Sulaymon bilan Porso Shamsiyev ushbu qo‘lyozmalarni “Ilk devon” deb e’lon qilganlar?

Bu holatni murakkab davr va hukmron mafkura bilan bog‘liq ravishda talqin qilish, anglash to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki Navoiyning nafis qo‘lyozmalari, shohona bezakli kulliyotlari bo‘lsa-da, ularning faksimile nusxasini chop etishga sho‘rolarning na mablag‘i, na rag‘bati bor edi. Shoir qo‘lyozmasini “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” qolipga tushirmoq uchun Griboyedov xuni evaziga keltirilgan qo‘lyozmani “Eron va Rossiya urushining oldini olgan asar” sifatida talqin etish hukmron partiya siyosatiga mos kelardi. Shu sabab Hamid Sulaymon Navoiyning barcha nusxalaridan aynan shunisini tanlagan bo‘lsa ajab emas.

ALQISSA...

Hazrat Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida iftixor bilan bunday yozgan edi:

Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos.

Navoiyshunoslik alohida fan sifatida shakllanganiga ham yuz yildan oshdi. Ammo ulug‘ shoirimizning she’riy bisotini belgilashda hali ham “taxminshunos” darajasidamiz. Hozirga qadar Navoiyning uch mingdan ziyod qo‘lyozma nusxasi borligi aniqlangan. Ularning har birini o‘rganish, qiyosiy tahlil etish, rasmiy devonlarga kirmagan bayt va misralarni aniqlash, qolaversa, bu muhtasham merosni xalq mulkiga aylantirish uchun minglab navoiyshunoslar asrlar davomida zahmat chekishiga to‘g‘ri keladi. Tadqiqot jarayonida ana shu cheksizlikni tuyishning o‘zi katta baxt!

Xolis bahs, sog‘lom ilmiy munozara uchun maydon ochiqligini eslatgan holda xulosa yasasak: “Ilk devon” qo‘lyozmasi Alisher Navoiyning yoshlik davri lirikasidan iborat, muxlislari tomonidan tuzilgan devon emas, demak, asl qo‘lyozmani aniqlash uchun izlanishlarni davom ettirmoq kerak.

Olim DAVLATOV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MULOHAZA

NISHONPAZLIK VASVASASI

yoxud el tanimagan “jahongashta adiblar”

Tanishim qishloq xo‘jalik xodimlari bayramida “Ilg‘or tomorqachi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganidan xabar topib, uni qutladim. Bu inson ko‘p yillardan buyon mo‘jazgina tomorqasidagi issiqxonada turli ko‘kat-u sabzavotlar yetishtirib, oilasini boqadi. Ta’rifi qishlog‘idan chiqmagan odam... Gap ohangida ozroq iymanish ham seziladi: “Men... o‘z oilam uchun ishlasam... bu yoqda hokim buva ko‘pchilik orasida minbarga chaqirib, ko‘ksimga nishon taqib qo‘ysalar. Davlatga don-u paxta yetkazib berayotgan fermerlardan sal uyaldim-da...”

Aytaman: “Siz qo‘shimcha daromad topish uchun yil bo‘yi ter to‘kasiz. Bu bilan bozorlar to‘kin va arzon bo‘lishiga ulush qo‘shasiz. Mehnatingizga munosib baho bu! Tomorqasini partavga aylantirib, davlatdan bir nima undirish g‘amida yurganlar ozmi!?”

Ishqilib, uning xijolatpazligi eriganday bo‘ldi. Telefonimga ko‘krak nishoni suratini yubordi. Chiroyli nishon. Ko‘ksiga taqib tushgan suratini so‘rasam, rozi bo‘lmadi. “Endi... biz bir oddiy dehqon bo‘lsak...”

Shu bahona uch yil oldin tengqurim bo‘lgan yozuvchi qo‘ng‘iroq qilib aytgan g‘alati taklif esimga tushdi: “Akademik bo‘lgingiz bormi?” Umrida ilmiy ish bilan shug‘ullanmagan, aqalli, nomzodlik rutbasi yo‘q kamina taklifdan ajablandim: “Men olim bo‘lmasam...” Tanishim gapni bo‘ldi: “Olim bo‘lish shartmas. Belgilangan pulini to‘lasangiz... akademik diplomi qo‘lingizda!”

“Savdo”miz pishmadi – taklifni rad qildim.

Oradan ko‘p o‘tmay, o‘sha tanishim qalin muqovali akademiklik diplomi va ko‘krak nishonini ko‘rsatib, maqtandi: “Tumanimizdan menga qadar biror akademik chiqmagan ekan!”

...Qo‘shni tumanda taniqli bir olim xotirasiga bag‘ishlab tadbir o‘tkazildi. Boshlovchi galmagal xotira aytmoq bo‘lganlarga so‘z beryapti. Navbatdagi notiqni davraga chorlashdan oldin uning besh-oltita nishonini sanadi. U ham sahnaga ko‘ksining yarmi to‘la yaltiroq nishonlar bilan chiqib keldi. Yonimda o‘tirgan tuman hokimi o‘rinbosari sekin so‘radi: “Shu nishonlar haqiqiymi?” Bexos tilimga kelgan gapni aytib yubordim: “Agar pulini to‘lasangiz, bunaqa nishonlardan besh-oltitasini bir kunda taqasiz...”

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining qay darajada mo‘tabar dargoh sanalishi, unga a’zo bo‘lish uchun olimlarimiz ko‘p yillar ter to‘kib, ilm-fan sohasida maktab yaratishi zarurligi, bunday zahmatkash olimlarning hurmati va maqomi ham baland ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

Hozir biz huquqiy-demokratik jamiyatda yashayapmiz. Turli jamoat tashkilotlari, shu jumladan, ijodiy uyushmalar va hatto, akademiyalar ochilishi erkin, demokratik jamiyatning huquqiy tamoyillaridan biri. Istagan fuqaro shunday jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar tashkil etishi va unga a’zolar jalb qilib, shu orqali o‘zi va a’zolarining ijod namunalari targ‘ibot-tashviqotini yuritishi, tadbirlar tashkillashtirishi mumkin. Yoki jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan akademiyaga ilmga chanqoq, ilmiy izlanishlarga havasmand yoshlarni tortib, ularning ilmiy maqolalari (kashfiyotlari)ni keng ommaga taqdim qilish orqali ko‘pchilikni ilm-fanga qiziqtirishi tabiiy hol. Ammo...

Atamasiga “ijtimoiy”, “falsafiy”, “badiiy” so‘zlari tirkalgan qandaydir akademiya akademiklik unvoni, uning qandaydir nishonlarini (orasida “xizmat ko‘rsatgan adib” va boshqa faxriy unvonlari ham bor) pul evaziga tarqatishi qaysi mezonlarga to‘g‘ri keladi? Umrida bir-ikkita piyoz po‘chog‘idek yupqa kitobcha chiqargan (nusxasi ko‘pi bilan 200–300 atrofida) ayrim havaskor shoir va yozuvchilar bir dumalab “akademik” bo‘lib qolyapti. Hatto, birorta risolasi nashr yuzini ko‘rmagan “ishtiyoqmand”lar ham o‘sha akademiyaning nishondoriga aylanmoqda.

Mayli, buni havaskor ijod ahlini ma’nan qo‘llash, deylik. Ammo bugun bir yumalab akademik bo‘lganlar to‘rt qator she’ri ostiga o‘zini “akademik shoir” deb qayd qilayotganiga nima deymiz?

Shunga o‘xshagan turli akademiyalarga a’zo bo‘lganlar orasida taniqli insonlar – yozuvchi, olimlar borligi, ular katta davralarda adabiyotimiz, ilm-fanimizni targ‘ib qilishayotgani holatidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. O‘sha insonlar bu unvon va nishonlarni maqtanish uchun emas, shunchaki mehnatlari tan olinishi, faxriy bir nimarsa sifatida qabul qilishgandir.

Yaxshi gumonda bo‘lamiz, menimcha, shunday!

Davlat mukofotlari maqomiga kirmaydigan turli ko‘krak nishonlari vazirliklar, idora-tashkilotlar tomonidan ta’sis qilinib, sohada uzoq yillar ishlagan kishilarga berilishi qonunlarimizda belgilangan. Bunday nishonlarni ta’sis qilish va odamlarni mukofotlashga oid nizomlar ham bor. Turli darajadagi “mehnat faxriysi” yoki tarmoqlar bo‘yicha ta’sis qilgan “... a’lochisi”, “... faxriysi”, “... fidokori” kabi nishonlarni ham shu qatorga qo‘shamiz. Bunday nishonlarga munosib ko‘rilgan insonlarni qutlaymiz ham. (Oddiy tomorqachi quvonchiga sherik bo‘lganim ham shundan).

Jamoatchilik asosida tashkil qilingan turli ijodiy uyushmalar (va hatto, akademiyalar) qo‘shni respublikalarda ham anchagina. Ba’zi hamyurtlarimiz ana shunday ko‘krak nishonlariga sazovor bo‘lgani haqidagi xabarlarni eshitamiz. Keyinchalik ma’lum bo‘ladiki, bu nishonlar sotilarkan – kim pulini to‘lasa, o‘shaniki.

Ochig‘i, hozir “nishonpazlik vasvasasi” tashxisi noma’lum xastalikka aylandiki, “Kimda ko‘p nishon bor?” degan poygaga mukkasidan ketganlar safi ko‘paymoqda. (Ularning tadbirlarga ko‘ksini to‘ldirib yaltiroq nishonlarni osgancha mag‘rur kirib kelishlarini aytmay qo‘ya qolay).

Vohalik bir ijodkorni yaxshi taniyman. Tajribali jurnalist va publitsist o‘laroq umrining yarmini arxivlarda o‘tkazib, bir asr ilgari yashab o‘tgan jadid bobolarimiz haqida qimmatli materiallarni to‘plab, o‘nga yaqin kitob chop ettirdi. Garchi ilmiy darajasi bo‘lmasa-da, bir o‘zi bir ilmiy tadqiqot institutining jamoasi bajaradigan ishlarni amalga oshirdi. Uning mashaqqatli mehnatlari ijodiy tashkilotlar nazaridan chetda qoldi – birorta mukofot olmadi. Aslida, o‘zi ham bunga intilmadi. Yaqinda shu jurnalistning akademik bo‘lgani haqida ijtimoiy tarmoqdagi xabarga ko‘zim tushgach... qo‘ng‘iroq qildim.

“O‘zlari menga qo‘ng‘iroq qilishdi. Ko‘p tadqiqotlar yaratgan ekansiz, sizga akademik diplomi beramiz, deyishdi. Ko‘ngilbo‘shlik qildimmi, surishtirib o‘tirmay rozilik berdim va endi pushaymonim ichimda. Bu diplom uchun kattagina pul to‘lashim kerak ekan. Nima uchun pul to‘lashim sababini shunday tushuntirishdi: “Vohaga kelib-ketish, mehmonxona va ovqatlanish xarajatlari uchun berasiz. Axir, siz uchun azza-bazza olis yo‘l bosib, shuncha xarajat qilib keldik”. Nafaqada bo‘lganim uchun bu mablag‘ menga og‘irlik qilishini aytdim: “Oldindan shuni aytganingizda poytaxtga o‘zim borardim-ku”, dedim. Bunga ham bahona topishdi. “Bizlar keldik. Endi yana ikki-uch nomzod toping, shunda ozroq pul to‘laysiz!” Nima qilay, yana ikki kishini topib berdim”, deydi u afsuslangancha.

Suhbatdoshim diplomini hech kimga ko‘rsatmagani, bundan uyalishi, xabarni esa o‘sha tashkilot mutasaddilarining o‘zlari ijtimoiy tarmoqlarga yoyganini ham eslatdi. Mana bir “akademik”ning holati!

...Ijodiy guruhlarda tez-tez shunday e’lonlarga ko‘zimiz tushadi: “Falon davlatda asarlaringiz chop qilinishini istaysizmi? Unday bo‘lsa, ikki varaq hajmda she’rlar yoki hikoyalaringizni falon manzilga jo‘nating!” E’londa, albatta, ijodiy ishlaringiz o‘zga tilga o‘girilishi va chop qilinishi uchun qancha miqdor pul to‘lashingiz ham ko‘rsatilgan bo‘ladi. 20–30 nafar havasmandlar asari tarjimasidan iborat to‘plamning keyin shu mamlakatda taqdimoti ham tashkil qilinadi. Taqdimotga borish har bir ijodkorning o‘z ishi, ya’ni yo‘lkira-yu boshqa xarajatlar o‘z hisobidan. Unga taqdimotda o‘sha kitobdan ikki nusxa beriladi. (Chet mamlakatlardan birida shu taxlit chop qilingan “kitob taqdimoti”ga borib qaytgan ijodkor qarzlarini uzish uchun o‘zi ham xorijga ishlashga ketganini bilaman).

Umuman, o‘sha kitob necha nusxada chop etilgani, o‘sha mamlakatdagi adabiyot ixlosmandlariga qay darajada taqdim qilingani mavhumligicha qoladi. Xo‘p, o‘ttiz nafar pul to‘lagan ijodkor oltmishta kitob oldi, deylik. O‘ttiz nafar muallif to‘lagan pul miqdori o‘rtacha 7-8 million so‘mga boradi. Bundan tarjimon haqi chegirib tashlansa, kitob o‘sha davlatdagi biror xususiy nashriyotda ko‘pi bilan yuz nusxada chop qilingani oydinlashadi.

Demak, uddaburon tarjimon “sopini o‘zidan chiqaradi”, shu bahonada to‘plamga asarlari kiritilgan ijodkorlar hisobidan chet elga sayohat ham qilib keladi.

Ana shunday “jahongashta adiblar” orasida maktab o‘quvchilari – havaskorlar ham borligi adabiyotimiz targ‘ibotidan maqsad nima ekanligini bir qadar oydinlashtiradi. Ya’ni, tashkilotchi tarjimon manfaati bu yerda hamma narsadan ustun turadi.

Mana, “o‘zbek adabiyoti targ‘iboti” bo‘yicha innovatsion usul! Qoyilmisiz?



Eng afsuslanarlisi, qo‘shni yoki Sharq mamlakatlarida shunday “ilg‘or usul”da chop qilinayotgan kitoblar, garchi nusxalari sanoqli bo‘lsa-da, xorijdagi asl adabiyot muxlislarining milliy adabiyotimiz haqidagi taassurotini siyqalashtirmoqda. Abdulla Qodiriy kabi ulkan adiblari dunyoga yo‘l ochgan mumtoz-u zamonaviy adabiyotimizni bugun “ishbilarmon tarjimonlar” havaskorlik darajasiga tushirib qo‘yishmayaptimi?

Afsuski, shunday!

Hozirda arab hamda hind tillarida shu taxlit tarjima to‘plamlar chiqarish uchun pul yig‘ish avjiga chiqqan. To‘g‘ri, qanday bo‘lsa-da adabiyotimiz u yoki bu ko‘rinishda boshqa davlatlarga chiqishi e’tiborli holat. Bu jarayonga xorij tillarini bir qadar o‘zlashtirgan adabiyot ixlosmandlari bosh bo‘lishyapti. Ammo ularning tarjimonlik bobidagi saviyasi qay darajada, degan savol ochiq qolmoqda. Hozirda kompyuterda maxsus tarjima dasturlari borligini eslatsak, tarjimonlarning aksariyati shu dasturga “xizmat buyurib”, so‘ng ustidan o‘zi bilgan (fikrati yetgan) darajada tahrir qilib, to‘plamlar chiqarmayaptimikan, degan o‘yga boradi odam.

So‘nggi davrda “antologiya” so‘zi rosa ommalashdi. Chet davlatlarda chop qilinayotgan “hashar kitoblar”ning aksariga antologiya yorlig‘i yopishtiriladi. Antologiya – adabiyotning ma’lum davri, ma’lum janrida yaratilgan eng sara asarlar to‘plami. Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olish uchun o‘quvchilarning mahalliy nashriyotlarda shoshma-shosharlik bilan chop qilingan mashqlariga antologiya atamasi yopishmaydi. “Innovatsion tarjimon”larga esa baribir...

Keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘zbek tilida chop etilgan “Turkiy adabiyot durdonalari” yuz jildlik majmuasini antologiyaning asl namunasi deyish mumkin. Qolaversa, TURKSOY xalqaro tashkiloti tomonidan turkiy davlatlar ijodkorlarining sara asarlarini tarjima qilish, chop etish va taqdimotlarini o‘tkazish an’anaga aylandiki, buni ham olqishlash kerak.

Bir asr ilgari millatni uyg‘otish orzusida maydonga chiqqan, maktablar ochgan, yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborgan, iste’dodli yozarmanlarga ilk to‘plamlari dunyo yuzini ko‘rishlarida beminnat yordam qo‘lini cho‘zgan jadid bobolarimiz faoliyatidan ibrat olmog‘imiz kerak. Ularning unvonlar, nishonlar ta’sis qilishgani, o‘z faoliyatini rivojlantirish bahonasida turli diplomlar ulashgani haqida biror manbada o‘qiganim yo‘q. Qolaversa, bu kabi illatlar – nishonpazlik, soxta akademiklik ularning yetti uxlab tushlariga ham kirmagan.

...O‘tgan hafta o‘sha tanish jurnalist qo‘ng‘iroq qilib qoldi: “Xabaringiz bormi, anovilar yana murid oviga chiqishibdi. Nishon sotib oladiganlarni izlashyapti”.

Indamadim. Nimadir degim keldi-yu, nari o‘ylab-beri o‘ylab tilimni tiydim.

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

TAHRIRIYATDAN: ushbu maqolada bugun ko‘pchilikni o‘ylantirayotgan jiddiy masala tilga olingan. Chindan ham, keyingi vaqtlarda jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatadigan har xil mahalliy va xalqaro akademiyalar, uyushmalar paydo bo‘lmoqda. Muallif ta’kidlaganidek, bizning ham bunga qarshiligimiz yo‘q. Biroq ana shu tashkilotlar faoliyatini tartibga solish hamda ularga a’zolik mezonlarini ko‘rib chiqishning vaqti kelmadimikin?

Xo‘sh, Adliya vazirligi va boshqa mutasaddi idoralarning bu borada fikri qanday? Biz ularga ham minbar berishga tayyormiz.

O‘ZBEK TILIM – O‘Z TILIM

“VATANIY ISH...”

Jadid bobomiz Is’hoqxon Ibratning “Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”, degan so‘zlari bugun, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etgan. Darhaqiqat, o‘z ona tilini cheksiz hurmat qilgan millatgina o‘zgalarning ham tiliga hurmat va ehtirom bilan qaraydi.



Galdagi suhbatdoshimiz, arman millatiga mansub yurtdoshimiz, taniqli teleboshlovchi, iqtidorli aktrisa, qo‘shiqchi va bloger Karina Gaziyans o‘zining mumtoz qo‘shiqlarimizni sevib kuylashi, o‘zbekona chiqishlari bilan ko‘pchilikning mehrini qozongan.

– Men, O‘zbekistonda tug‘ilgan bo‘lsam-da, bolaligimda bu tilni bilmasdim. Bugun esa o‘zbek tilini katta qiziqish bilan o‘rganish bilan birga, milliy kinolarni ko‘rish, o‘zbekcha kitoblarni mutolaa qilish va mumtoz qo‘shiqlarni ijro etish orqali talaffuzim ustida ham ishlayapman. Shu asnoda o‘zbek tilining nechog‘li go‘zal va jozibali til ekanligini, uning so‘z boyligini yanada chuqurroq his qilyapman, – deydi u. – Men o‘nlab kliplarda, sahna asarlarida o‘zbek qizlariga xos milliylikni targ‘ib etuvchi rollar ijro etganim ko‘pchilikka ayon. Men o‘g‘limning ham o‘zbek tilini chuqurroq o‘rganishiga yordam beryapman. Birgalikda o‘zbekcha darslarini tayyorlaymiz. Mening fikrimcha, O‘zbekistonda yashayotgan har bir shaxs, albatta, shu xalqning tilini o‘rganishi, shu yurtning milliy qadriyatlarini hurmat qilishi kerak.

Zarnigor IBROHIMOVA yozib oldi.

TAQDIMOT

YANGI YILGA YANGI KITOBLAR BILAN

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an’anaviy tarzda nashr etib kelinayotgan “Birinchi kitobim” loyihasining navbatdagi seriyasi nashrdan chiqdi. O‘n to‘qqiz ijodkor tomonidan yozilgan 18 kitobni o‘zida jamlagan to‘plam turli yo‘nalish va janrlarni qamrab olgani bilan ham ahamiyatlidir.

Kitoblarning asosiy qismini she’riyat tashkil etadi. Bibigul Abdiyeva, Burxon Rahmat, Durdona Bahodirova, Faxriyor Baxtiyorov, Mahliyo Karimova, Muattar Mamatkarimova, Muhammadali G‘afforov, Sanjar Toshbekov, Shukrullo Sheraliyev, Suhrob Hamroyev kabi 10 nafar ijodkorning she’riy to‘plamlari orasida chin ma’noda yangilik bo‘lganlari, adabiyotimizga o‘zgacha ruh va kayfiyat olib kirayotgani ko‘pligi kishini quvontiradi. Nasr yo‘lini tanlagan ijodkor yoshlar Charos Avazova, Farhod Eshon, Mavluda Samariddinova, Mahbuba Abdurahimova ijodida ham yangilik izlash, turli “izm”lardan xoli samimiy va sodda hikoyalarni yaratishga intilish kuchliligi seziladi.



Shuningdek, loyiha doirasida chop etilgan kitoblar orasida Muxlisa Toshpo‘latovaning bolalarbop she’rlari, Shohro‘z Umarjonning tarjimalari, Kamoliddin Ro‘zimatovning badiiy-publitsistik maqolalari, Islom Eshniyazovning sahna asarlaridan iborat to‘plami ham borki, bu turfalik yoshlarimizning qamrovni yanada kengroq olayotganini bildiradi. Bulardan tashqari, loyihaga Snejana Zeytulayevaning rus tilidagi “Лис” kitobi ham kiritilgani e’tiborga loyiq.

Ushbu kitoblar taqdimotiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi mas’ullari, taniqli yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunos olimlar, loyiha doirasida kitobi chop etilgan navqiron ijodkorlar va ularning yaqinlari ishtirok etdi. Tadbir davomida chop etilgan asarlar atroflicha tahlil qilindi.

Ustozlar oq yo‘l tilagan yosh ijodkorlar kitoblarini varaqlar ekansiz, har biri adabiyot sohasida o‘z yo‘lini izlayotganini his qilasiz. Faxriyorning harbiylarga xos shiddati, Sanjar Toshbekovning boshqalarda uchramaydigan jununi, Farhod Eshonning jahon adabiyoti ta’sirida yuzaga kelgan mistikasi, Mavludaning sochma she’r tarzidagi qatralari, Bibigulning o‘zbek ayollarigagina xos bo‘lgan tuyg‘ular jarangi, Charos Avazovaning samimiy va sodda hikoyalari sizni adabiyotning turli so‘qmoqlari sari boshlab ketadi.

Loyiha doirasidagi kitoblar haqida umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, yosh ijodkorlarda izlanish, yangilikka intilish kuchli ekanini ko‘ramiz. Umuman olganda, loyiha ushbu kitoblar ijod osmonida o‘n to‘qqiz qushning ilk parvoziga o‘xshaydi. Ularning qay manzilgacha uchib bora olishini esa vaqt ko‘rsatadi. Biz esa yangi yilni yangi kitob bilan kutib olgan yosh qalamkashlarga baland ijodiy parvozlar zavqi hamroh bo‘lishini tilaymiz.

Tadbir davomida bugungi kunda alohida faollik ko‘rsatayotgan, asarlari bilan tilga tushgan 8 nafar ijodkor – Jamoliddin Badalov, Dilnoza Azizova, Nurmuhammad Aziz, Ozod Mustafo, Nuriddin Rasulov, Abduvohid Suvonov, Dilshod Ro‘ziqulov, Sadoqat Ergasheva O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindi.

Bekzod IBRAGIMOV

2025-yil 1-yanvar
№ 1(53)

MA’NAVIY TARBIYA

TA’SIRCHAN TARG‘IBOT ZARURATI





Ma’naviy targ‘ibot shunchaki oyog‘i yerdan uzilgan, umumiy, hamma biladigan gaplardan iborat masala emas. Uning turlarini odamlarning axborotni qanday yo‘llar bilan qabul qilishidan kelib chiqib belgilaymiz:

a) vizuallar – axborotning katta qismini ko‘rish orqali qabul qiluvchilar. Bular juda-juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Xalqimiz bekorga: “Yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal”, demaydi;

b) audiollar – axborotning asosiy qismini eshitish orqali qabul qiluvchilar;

v) kinestetiklar – axborotning katta qismini boshqa sezgilar, masalan, hid bilish, paypaslash va boshqalar hamda harakatlar orqali qabul qiluvchilar;

g) diskretlar – axborotni mantiqiy fikr-mushohada, raqamlar, belgilar, mantiqiy dalil-isbotlar orqali qabul qiluvchilar.

Albatta, bulardan faqat bittasigagina daxldor kishilar kam topiladi. Odatda odamlar bularning baridan foydalanadi. Faqat obyektiv va subyektiv shart-sharoitdan kelib chiqib, kimdir u, boshqa birov bu turni ko‘proq ma’qul topadi.

Har qanday tasnifda bo‘lgani kabi, tabiiyki, bu yerda ham nisbiylik mavjud. Sinkretik, ya’ni aralash turlar ham bor. Masalan, radio faqat eshitiladi, tasviriy san’at asarlari, fotosuvratlar, muzey eksponatlari faqat ko‘riladi. Lekin kino, televideniye ko‘rsatuvlari, boshqa videomateriallar, teatr san’ati mahsulotlari, konsertlar ham ko‘riladi, ham eshitiladi. Modomiki shunday ekan, ma’naviy targ‘ibot bularning barchasidan birday foydalanishga majbur.

Yuqoridagi to‘rt turdan qay biriga kirishidan qat’i nazar, quyidagi tizimlar ma’naviy targ‘ibot bilan bevosita shug‘ullanadi.

Bular:

a) Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tizimi; b) madaniyat tizimi; d) ta’lim tizimlari; e) ommaviy axborot vositalari tizimi; f) nashriyotlar tizimi; g) mahalla tizimi; h) yoshlar tizimi; j) oila va xotin-qizlar tizimi; j) kasaba uyushmalari tizimi; k) diniy konfessiyalar tizimi; l) ijodiy tashkilotlar tizimlari; m) jismoniy madaniyat va sport tizimi; n) huquqni muhofaza qilish organlari tizimlari va hokazo.

O‘zbekistonimizda ma’naviy targ‘ibot bilan shug‘ullanmaydigan biror tashkilot, muassasa, idora, korxona yo‘q. Chunki Respublika Ma’naviyat kengashi mamlakatdagi bu soha bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ana shu kengashning raisi hisoblanadi. Mamlakatimizdagi barcha mintaqalar birinchi rahbarlari, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari o‘z mintaqaviy Ma’naviyat va ma’rifat kengashi raisi hisoblanadi. Shuningdek, tuman va shaharlar hokimlari ham o‘z hududiy ma’naviyat va ma’rifat kengashlari rahbarlari sifatida ma’naviy targ‘ibot ishlarini boshqaradi.

Ma’naviy targ‘ibot ta’sirchanligini oshirishga o‘z-o‘zidan erishib bo‘lmaydi. Uning ko‘p-ko‘p talab va shartlari, yo‘l va yo‘riqlari bor. Ma’naviy targ‘ibotchi o‘zidagi axborotni, bir ilojini qilib tarqatib olsa, bo‘ldi emas. Bu – masalaning bir tomoni. Lekin asosiy maqsadga erishgan-erishmaganlik shu axborotning targ‘ibot qaratilgan omma vakillari tarafidan qanday o‘zlashtirilganiga qarab belgilanadi. Shuning uchun ma’naviy targ‘ibotchi tinglovchilarning ongtafakkuri barcha nozik jihatlarigacha hisobga olgan holda ish yuritishga majbur.

Kasb taqozosi bilan tajriba sifatida atoqli qiziqchimiz Hojiboy Tojiboyning traktorchi va o‘qituvchilar qiyosi asosidagi bir paytlar juda mashhur bo‘lib ketgan chiqishining maqsadini ko‘p yerlarda kishilardan so‘raganman. Ishonasizmi, eksperiment ishtirokchilarning 80 foizga yaqini: “Bu chiqishida qiziqchi traktorchilarni ulug‘lagan”, deb hisoblashini ma’lum qilishgan. Holbuki, Hojiboy Tojiboy o‘z paytida: “Ey birodarlar, qanday zamon bo‘ldiki, o‘qituvchidek muqaddas kasb egalarining mavqeyi, hatto, traktorchilarning mavqeyidan ham past darajaga tushib ketsa, mamlakat va xalqning kelajagi nima bo‘ladi?!” deb bong urgan emasmidi?

Mana, bugun taniqli qiziqchining orzulari amalga oshib, mamlakatimizda o‘qituvchilar mavqeyi ortib boryapti, bu kasb egalarini, shuningdek, o‘quvchi va talabalarni ham ta’limdan tashqari ishlarga jalb etish taqiqlandi. 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘qituvchilarning jamiyatdagi maqomi haqida yangi 52-modda kiritildi.

Demak, ma’naviy targ‘ibotda tepadan turib so‘zlash yo‘li ketmaydi, xalq bilan uning yoniga tushib gaplashish kerak.

Ma’naviy targ‘ibotning har qanday turida, avvalo, tushunchalar bilan ishlanadi. Busiz hech mumkin emas. Tushunchalar esa ikkiga bo‘linadi: a) muayyan (konkret, aniq) tushunchalar – olma, nok; ruchka, qalam; samolyot, vertolyot, stol, stul; qovun, tarvuz kabilar; b) mavhum (abstrakt, noaniq) tushunchalar – iymon, vijdon; mo‘min, musulmon; ma’naviyat, ma’rifat; g‘oya, din, axloq kabilar.


Muayyan tushunchalarni qo‘l bilan ushlab ko‘rish, taroziga tortish, rangini aniqlash, hajmini o‘lchash, qattiq yo suyuq modda ekanini bilib olish mumkin. Shuning uchun bunday tushunchalarga ta’rif berish osonroq.

Mavhum tushunchalarni anglash, ta’riflash uchun tasavvur kuchli bo‘lishi lozim. Voiz nutqida ishlatayotgan katta-kichik, muayyan-mavhum har qanday tushunchani to‘la anglab yetgan bo‘lishi, ularning bir-biridan farqli va o‘zaro o‘xshash jihatlarini obdon ajrata olishi shart. Shuni ham unutmaslik kerakki, ma’naviy targ‘ibotda aksaran mavhum tushunchalardan foydalaniladi.

Tushunchalar qamrovi jihatidan katta-kichikka bo‘linadi. Masalan, “din” – katta tushuncha, “islom” undan ko‘ra kichik tushuncha, ya’ni “islom” atamasi din tushunchasining ichiga kiradi. Buni xuddi “ota”, “o‘g‘il”, “nevara”, “evara”, “chevara”, “pannevara” tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlik singari anglash kerak.

Afsuski, ko‘p ma’naviy targ‘ibotchilar nutqida amalda “parlament”, “hukumat” va “sud” kabi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini o‘z ichiga qamrab oladigan “davlat” so‘zi o‘rniga ham “hukumat” atamasi qo‘llab ketilaveradi. Hattoki, ba’zan ommaviy axborot vositalarida ham “hukumat mukofotlari” degan mutlaqo xato istilohga duch kelamiz. Holbuki, O‘zbekiston Respublikasida davlat mukofotlari joriy etilgan, ular davlat rahbari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan beriladi.

Fandagi “induksiya” va “deduksiya” tushunchalari ana shu katta-kichiklikka asoslanadi. Sodda qilib aytganda, “induksiya” kichik (qismning bo‘lagi) hisoblangan tushunchalar tahlili orqali katta tushunchaga – xulosaga kelish, “deduksiya” esa buning teskarisi – katta tushunchalar tahlili orqali kichik tushunchalarni aniqlashtirish. “Induksiya”ni o‘tkir uchi pastga qaratilgan, asosi esa tepada bo‘lgan uchburchak tarzida, “deduksiya”ni esa asosi pastda bo‘lib, o‘tkir uchi tepaga qaragan uchburchak shaklida tasavvur qilish mumkin:



Induksiya Deduksiya

“Induksiya” lotincha “inductio” – burish, to‘g‘rilash; qo‘zg‘atish ma’nolaridan olingan. Unga 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday izoh berilgan: *“Juz’iy hodisalardan umumiy natija chiqarish, ayrim faktlardan umumiy xulosaga kelish; ziddi deduksiya”* (2-jild. – Toshkent: 2006. – B. 209).

“Sabr”, “oyat”, “sura”, “pora” (“juzv”), “Qur’on”, “vahiy”, “oxirat”, “islom”, “din”, “Alloh” tartibida kichik tushunchadan katta tushunchaga qarab (“induksiya” yo‘li bilan) borilyapti.

“Deduksiya”ga 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: *“Umumiy holatdan juz’iy xulosa chiqargan holda muhokama yuritish; umumiy holatdan juz’iy natija chiqarish; ziddi induksiya”*

(1-jild. – Toshkent: 2006. – B. 591), tarzida izoh berilib, so‘zning lotincha “deductio” – “payqab olish”, “xulosa chiqarish” so‘z birikmalaridan olingani, mantiq ilmiga aloqadorligi ham qayd etilgan.

“Alloh”, “din”, “islom”, “oxirat”, “vahiy”, “Qur’on”, “pora” (“juzv”), “sura”, “oyat”, “sabr” tartibida esa katta tushunchadan kichik tushunchaga qarab (“deduksiya” yo‘li bilan) borilyapti.

Ma’naviy targ‘ibotchi ma’ruza jarayonida qaysi yo‘l bilan ketayotganini aniq bilib turishi, shuni qat’iy inobatga olib borishi lozim. Mantiq ilmining asrlar mobaynida erishgan ana shunday yo‘l-yo‘riqlaridan kelib chiqmasak, odamlarning ong-tafakkuriga ta’sir o‘tkazishimiz, ularning biror narsani oxirigacha tushunib olishiga amaliy yordam berishimiz juda-juda qiyin kechadi.

Biz o‘zimiz ishlatayotgan tushunchalarimizni to‘la anglarmiz. Lekin endi axborotni qabul qilayotgan auditoriya ularni qay darajada tushunayotgani bilan hisoblashishga majburmiz-da. Buning uchun tinglovchilar tarkibi (kontingenti) haqida aniq-tiniq tasavvurga ega bo‘lishimiz ham kerak.

Butun dunyoda so‘z orqali ta’sir etishda til mahoratiga birlamchi e’tibor beriladi. Qadimda ham shunday qilingan, hozir ham talab shu, bundan keyin ham shunday bo‘ladi. Tabiiylik – tilga e’tiborning birlamchi talablaridan. Tabiiylikdan samimiylik kelib chiqadi. Ma’ruzachining tili imkon qadar adabiy tilga bo‘ysunishi va xalqqa tushunarli va yaqin bo‘lishi lozim. Tilni yaxshi bilmay turib bu tilda samarali ma’naviy targ‘ibot olib borishning aslo iloji yo‘q.

Tarbiyaga yo‘naltirilgan har qanday xatti-harakat, qadam, vosita, dars, tadbir, marosim, o‘git, tizim va hokazoda maqsad aniq-tiniq bo‘lishi, ya’ni tarbiyaga mas’ul har bir shaxsda aynan tarbiyalanuvchi ongida qanday (siyosiymi, iqtisodiymi, diniymi, huquqiymi, mafkuraviymi, demokratikmi, ekologikmi, tibbiymi...) o‘zgarish kutilayotgani oldindan o‘ylanishi va shu ichki qat’iy reja asosida ish olib borilishi lozim.

So‘zga juda chechan notiq, hatto, vallomat voiz ham tinglovchilar diqqatini 5-6 daqiqadan ortiq band etib tura olmaydi. Ammo 5-6 daqiqada biron-bir mavzu bo‘yicha ko‘ngildagidek ma’ruza qilishning ham aslo iloji yo‘q. Nima qilish kerak? Yo‘llarini izlash zarur. Yo‘llari esa ko‘p. Gapirishni to‘xtatib, ekranda biror videolavha qo‘ying. Birovning yozganidan parcha o‘qib berganingizdan ko‘ra, uning o‘zi gapirgan audio yoki video parchani qo‘yib bering. Mavzuga bog‘lay olsangiz, she’r o‘qing. Biror qo‘shiqdan xirgoyi qilib bering. Qiziqchilarga o‘xshab rolga kirgan holda mavzuga daxldor bir hangoma aytib bering. Bir kitob ko‘rsating. Biror rasm namoyish eting. Bir xillik hech kimga yoqmaydi, axir.

Ma’naviy targ‘ibotda, bordi-yu, jahon buyuklaridan birining nomi tilga olindimi, endi, albatta, u kishining kim ekani, qachon va qayerda yashagani, nima ish qilgani, nima maqsadda hozir tilga olinayotgani qisqagina qilib aytib o‘tilishi shart. Ko‘pchiligimiz: “Men tilga olgan zotni hamma biladi”, deb o‘ylaydi. Aslo unday emas. Bil’aks, bu keltirgan ma’lumotimiz maqsadni oydinlashtirish o‘rniga masalani battar chigallashtiradi. Chunki tinglovchiga yetti yot begona odam haqida gapirishning nima keragi bor?

...Bir amr-u ma’rufda Abu Hurayra tilga olindi. Ataylab yonimdagilardan Abu Hurayra haqida so‘radim. “Arabistondagi bir shahar bo‘lsa kerak”, dedi suhbatdoshim. Sababini surishtirsam: “Abu Dabi” degan shahar bor-ku!” dedi.

Bu talablar ma’ruzachi har qancha og‘zaki targ‘ibot qilayotgan bo‘lsa ham, bu chiqishiga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rishi, nutqining xomaki rejasini obdon pishitib, fikrlarini ixcham tezislar tarzida yozib olishi, kerakli ma’lumotlar bilan qurollanib, so‘ng minbarga chiqishi lozimligini ko‘rsatadi.

Ta’sirchanlikning eng asosiy talabi – ishontirish. Ishontirishning eng asosiy talabi – to‘g‘ri so‘zlash. To‘g‘ri so‘zlashning eng asosiy sharti – so‘z bilan amal birligi. Hech qachon minbarda o‘zimiz amal qilmaydigan so‘zni gapirmasligimiz lozim. Mabodo, gapirib, amal qilmayotgan bo‘lsak, uni xalqdan yashirishning hech iloji yo‘q. Shuning uchun imkon qadar bugun haqida, zamon bilan bog‘liq gaplarni gapirishimiz zarur. Bugunning siyosatini bilmay turib esa zamon talabi darajasida ma’ruza tayyorlashning hech imkoni yo‘q.

Xoja Hofiz Sheroziy (XIV asr)ning bir bayti shunday jaranglaydi:

Voizon kin ҷilva bar
mehrob-u minbar mekunand,
Chun ba xilvat meravand,
on kori digar mekunand.

Mazmuni: *“Voizlar mehrob-u minbarda jilva qilishadi, lekin xilvatga o‘tganlarida esa boshqa ish bilan mashg‘ul bo‘lishadi”.*

Ko‘pchilikning shakllangan tasavvurlariga butunlay teskari, ya’ni ulardan yuz foiz yoxud bir yuz sakson gradus farq qiladigan fikrni ilgari surishda juda ehtiyotkorona yo‘l tutishga to‘g‘ri keladi. Ifodali qilib aytganda, bitta yangi mulohazani o‘rtaga tashlash uchun avval to‘qqizta eski gapni keltirish zarur. Chunki yangilikning qabul qilinishi – doimo og‘ir kechadigan jarayon.

Endi yana bir masala o‘rtaga tushadi, bu – tinglovchilarning kimlardan iborat ekani, ularning ongtasavvurlari darajasi.

...Bir amri ma’rufda ma’ruzachi me’roj haqida uzoq gapirdi.

– Voiz nima haqda gapirdi, men yaxshi anglolmay qoldim? “Me’roj” degandek bo‘ldimi? Nima o‘zi – me’roj? – deb so‘radim.



Avval me’roj o‘zi nimaligini obdon tushuntirmay turib ham bu haqda shuncha ma’ruza qilish mumkinmi? Demak, imom, qariybki, o‘ziga o‘zi gapirdi. Bunday ma’ruzaning ta’sirchanligi yo‘q darajada. Bunday ma’ruzaning kimga keragi bor?

Voizning hech mahalda o‘zini akademik, o‘tirgan somelarni esa “ukademik” sanashga haqqi yo‘q.

Dunyoda eng qiyin ishlardan biri – bir kishining miyasida pishgan fikrni boshqalar ongiga o‘tkazish. Faqat bosh talab shuki, badiiy-timsoliy qilib aytiladigan bo‘lsa, qo‘shnining bog‘idagi mevalardan tatib ko‘rish uchun avval qo‘shni bilan birga yetaklashib, o‘sha bog‘ga kirib olish kerak, shundagina mevaga qo‘l yetishi uchun imkon paydo bo‘ladi. Aks holda, bog‘ning devorlaridan narida turib uzoqdan ko‘z qamashtirib yotgan mevalar haqida shirin orzugina qilamiz, xolos.

Ma’naviy targ‘ibotda, albatta, jamoa vakillaridan tushgan savollarga javob berishga to‘g‘ri keladi. Javob hamisha amal qilish mumkin bo‘lgan tarzda bayon etilishi, buning uchun falsafaning makon va zamon degan tushunchalarini aslo yoddan chiqarmaslik, ya’ni ta’sirchanlikka erishish uchun **qaysi jamiyatda** va **qanday davrda** yashayotganimizni har taraflama mushohada qilgan holda ish ko‘rish zarur bo‘ladi.

Modomiki, mukammal shaxs tarbiyasi jamiyatimizning asl maqsadiga aylangan ekan, tarbiyani kompleks, ya’ni har tomonlama uyg‘un tarzda olib borish – zamon talabi. Masalani shu tarzda qo‘ysakkina, jamiyatni o‘zgartira olamiz. Jamiyatni o‘zgartirmasak, hayot mamlakat va xalq oldiga qo‘ygan maqsadga yetish – huquqiy demokratik tuzumni shakllantirish, ilg‘or davlatlar safiga qo‘shilish mushkul kechadi.

Og‘zaki targ‘ibotda, radio va televideniye chiqishlarida ovoz – odamlarni ishontirishning eng asosiy quroli. Samimiylikka aynan ma’ruzachining talaffuz mahorati orqali erishiladi. Abdurahmon Jomiy (XV asr) huzurlarida birov juda baqir-chaqir bilan, ovozini o‘ta darajada balandlatib she’r o‘qigan ekan, piri komil unga: “Taqsir, she’r o‘qurmusiz yoxud kishi qo‘rquturmusiz?” deya tanbeh bergan ekanlar...

Alisher Navoiy (XV asr) bir buyuk zotning mavzumizga bevosita daxldor zo‘r fikrini keltiradi: “Voiz uldurki, uning suhbatiga boy kirsa, kambag‘alligini his etib chiqsin, kambag‘al kirsa, boyib chiqsin”. Mazmuni shuki, o‘zini, shu voizdan ko‘ra bilimliroqman, deb hisoblagan odam agar uning ma’ruzasini eshitsa, fikridan qaytib, ko‘tarilgan mavzu bo‘yicha voizchalik bilimli emasligini (demak, kambag‘alligini) tan olsin, bordi-yu, o‘zini voizga nisbatan bilimsizroq hisoblaydigan kishi uning suhbatiga musharraf bo‘lsa, chindan ham, undan yetarli darajada bilim o‘zlashtirsin (demak, ma’naviy jihatdan boyisin).

Xullas, ko‘p ma’lumotga ega bo‘lish – boshqa narsa. Biroq uni ommaga tushunarli va ta’sirchan tilda yetkazib berish butunlay bir boshqa mahorat talab qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda ma’naviy targ‘ibot bilan faol shug‘ullanib, katta mahoratga ega bo‘lgan tamoman yangi bir ziyolilar toifasi yuzaga keldi.

Mulohazalarimiz shu soha vakillarining istiqlol yillaridagi tajribalari tahlilidan kelib chiqqan xulosa va takliflar tarzida qog‘ozga tushdi.

Sultonmurod OLIM,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti “G‘oya-inkubator” loyihasi eksperti

MILLAT FIDOYILARI

ZAMON TEGIRMONIDAN OMON CHIQQAN ZAMONBOYEV



Muhammad Rasul Zamonboyev

1918-yilning fevralida Turkiston Muxtoriyati Qo‘qonda qizil qo‘shin va arman dashnoqlari qo‘li bilan qonga botirilgach, jadidlik harakatida bo‘linish yuz beradi. Muxtoriyat rahbarlari qatag‘onga uchrab, bir qismi xorijga chiqib ketadi. Va o‘sha yerdan turib siyosiy kurashni davom ettirishga urinadi. Bir qismi esa jadidlikning g‘oyaviy asosi bo‘lgan ma’rifat tarqatish ishlari bilan cheklanadi. Yangi maktablar ochib, unda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, matbuot vositasida elning fikrini ochish ishlarini davom ettiradi.

Shuningdek, jadidlar, xususan, ularning kenja avlodi ichida vaziyatdan har qanday yo‘l bilan bo‘lsin foydalanishni, el-yurtda adolat barqaror bo‘lishi, mehnatkash xalqning bo‘ynidagi istibdod zanjirini ozgina bo‘lsin bo‘shatishni niyat qilganlar ham bor edi. Ular bosh g‘oya – istiqlol orzusi boy berilgan bo‘lsa ham, millatni asrab qolish zarur, degan fikrda bo‘lishgan. Buning uchun sharoit imkon bergan barcha vositalardan foydalanishga uringan. Jumladan, sho‘ro tuzumi bergan imkoniyatlardan ham.

Jadidlarning shunday yosh avlodi vakillaridan biri Muhammad Rasul Zamonboyev edi.

U 1896-yil hozirgi Qozog‘istonning Turkiston viloyati, Iqon qishlog‘ida dunyoga kelgan. Otasi savdo bilan shug‘ullanib, farzandi Muhammad Rasulning ilm olishiga alohida e’tibor beradi. U, dastlab, Iqonda savod chiqardi, rus-tuzem maktabida o‘qidi. Keyin tahsilni Turkistonda, ilg‘or fikrli sanoatchi boy Saidnosir Mirjalilov ochgan jadid maktabida davom ettirdi.


Saidnosirboy o‘quvchilar orasidagi fikri tiyrak, ko‘ngli beg‘ubor, ilmga tirishqoq, eng muhimi, maqsadidan chekinmaydigan yosh yigitchaning kengroq davraga chiqishini xohlaydi va uni Toshkentga, Munavvar qori Abdurashidxonovning “Namuna” maktabiga yuboradi. Muhammad Rasul Toshkentga kelganida shahar alg‘ov-dalg‘ov ichida edi. Rusiyada boshlangan 1917-yil – fevral inqilobi mazlumlar fikratida to‘ntarish yasagan, hamma yerda “Hurriyat, hurriyat!” degan gap-so‘z eshitilardi. Yosh yigitcha o‘qish qolib, shahardagi siyosiy kurashlarga sho‘ng‘ib ketadi. U jadid ustozlari qoshida kamarbasta bo‘lib turadi.

Millat fidoyilari qo‘lida ta’lim olgan Muhammad Rasul hamfikrlari kabi istiqlol orzusi bilan yashar edi. Turkiston Muxtoriyati e’lon qilingach, u Qo‘qon shahriga borib, Saidnosir Mirjalilov yonida Muxtoriyat hukumati xizmatida bo‘ladi. 1918-yil fevralida qizil armiya va arman dashnoqlar tomonidan Muxtoriyat qonga botirilgach, mislsiz qirg‘inlardan omon chiqqan Muhammad Rasul o‘zi tug‘ilib o‘sgan Turkiston shahriga qaytishga majbur bo‘ladi. Lekin bu yerda ham siyosiy kurashlardan uzoqlashmaydi. Qozog‘iston mustaqilligi uchun kurash boshlagan “Alash O‘rda” partiyasiga xayrixohlik qilib, bir muddat uning saflarida ham bo‘ladi. Biroq istiqlol orzusi qozoq zaminida ham qonga botiriladi.

Shunda u kurashni yangicha davom ettirish kerak, degan fikrga keladi va 1919-yili kompartiya safiga kiradi. Bu paytlar u o‘qituvchilik qilayotgan edi. Shahar ahlining ijtimoiy hayotida faol qatnashardi. Partiyaga o‘tgach, Muhammad Rasul 1922-yil yanvar oyidan Turkiston shahar sudiga kotib bo‘lib ishga o‘tadi. Shu yilning iyul oyida Turkiston ASSR MIK raisi o‘rinbosari Sultonbek Xo‘janov aralashuvi bilan sudya lavozimiga saylanadi.

Bu vaqtda Turkistondan bir guruh yoshlar Toshkentga kelib, qozoq erlar maorif instituti, o‘zbek erlar maorif instituti, turli ishchi fakultetlarida ilm olayotgan edi. Toshkentda ularga Saidnosir Mirjalilovning “Turkiston” savdo shirkati homiylik qilardi. Muhammad Rasul Zamonboyev ham shu shirkatda ishlab, yoshlarning “Ko‘mak” uyushmasi tadbirlarida Botu, To‘lagan Mo‘min va Nosir Saidlar rahbarligida faol ishtirok etadi.

Muhammad Rasul Zamonboyev 1924–27-yillar davomida Chimkent shahar xalq sudi, 1927–28-yillar Turkiston shahrida sudya vazifasida ishlagan. 1928-29-yillarda Toshkent yuridik texnikumida o‘qiydi. 1929-30-yillar yana Turkiston shahri xalq sudida faoliyat yuritdi.



QZIL OZBEKISTAH

№166 (3944) | 22 IJUL 1937 JIL PAJŞANBA | BAHASI 10 TJIN

ALIJ SUDDAGI SA ILAR

Ikramov rajonidagi „Akmal" selposinin 21-nci magazin mudiri Xaliqov 4.416 somni rastrat qilqani ucun çnaji çavabgarlikka tartilib, Ikramov rajonidagi 85-nci solum xalq sud tamanidan 3 jil qamaqqa hukm qilinqan edi. Xaliqov juqarida ajtilgan pulni rastrat qilqanliqiqa iqrar solib undan 2650 somini qajtaris tolagan ham edi.

Xaliqov sud hukmidan kejin Ozsekistan Alij sudiga çazani bir az jenillatişni iltimas qilip ariza sergan. Ozsekistan Alij sudinin Muhammadijev, Asdurahmanov, Zamansajev, Salihovlardan ibarat şkajat kollegijasi Xaliqovnin işini tekşiris kormaj, 85-nci solum xalq sudinin hukmini sekar qildi.

Çamaat mulkiga xjanat qilqan Xaliqov sundaj kutulmagan sahilikka qandaj minnatdarcilik sildiriş ucun hajran.

N. Ş.

Biroq 1929-yildan e’tiboran unga nisbatan turli fitna-fasod avj ola boshlaydi. Bu ishda sovet matbuoti, ayniqsa, jonbozlik ko‘rsatadi. Jumladan, “Yosh leninchi” gazetasining 1929-yil 4-apreldagi 26-sonida “Qurbon” degan kimsaning “Yuzlardagi pardani ochish kerak” xabari bosiladi.

Unda Chimkent sudyasi Zamonboyevni kollektivlashtirishga xalaqit berish va iqonlik quloqlarni himoya qilishda ayblaydi. Bu bilan cheklanmasdan, uning 1919-20-yillarda Saidnosir Mirjalilovning “dumi” bo‘lgani, O‘rta Osiyo yuridik texnikumida o‘qib yurgan payti partiyadan haydalgani kabi holatlarga sha’ma qilib o‘tadi. Oradan ko‘p o‘tmay, Muhammad Rasul Zamonboyev yana bir bo‘hton – poraxo‘rlik aybi bilan GPU tomonidan hibsga olinib, 9 oy mobaynida qamoqda saqlanadi. Hartugul, o‘zining aybsizligini isbotlashga muvaffaq bo‘lib, ozodlikka chiqadi.

Lekin ta’qib va tahdidlarning oxiri ko‘rinmasdi. Oqibatda, ishini tashlab, Toshkentga ko‘chib kelishga majbur bo‘ladi. Biroq g‘animlar uni bu yerda ham tinch qo‘ymagach, Andijonga ketib, dushmanlari nigohidan chetroqda, turli idoralarda halol va shijoat bilan mehnat qiladi.

Oradagi salkam to‘qson yillik vaqt masofasi Muhammad Rasul Zamonboyev qaysi ayblari uchun bunday qattol dushman orttirdi ekan, degan savolga javob topishga imkon bermaydi. Ammo el ko‘zidan chetda, kichik idoralarda mehnat qilib yurgan Muhammad Rasul ustidan chaquvlar, ig‘volar davom etgani, “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1934-yil 15-oktyabr sonida “Fisq-fujurga sodiq” sarlavhali maqolada yana asosiy nishonga aylangani ma’lum.

Mazkur maqola chop etilganidan so‘ng, oradan yarim yil ham o‘tmay, 1935-yil aprelda Muhammad Rasul Zamonboyevning aybsizligi to‘liq isbot topib, Andijondan chaqirtirib olinadi va O‘zbekiston Bosh prokurorining yordamchisi etib tayinlanadi. Aks holda o‘sha davrning taomiliga ko‘ra, gazetada “urilgan” odam qamalib yo‘q bo‘lib ketishi kerak edi.

U 1935–1937-yillar davomida mazkur lavozimda adolatni ta’minlash, qonuniylik va huquqiy madaniyatni yuksaltirish yo‘lida samarali ish olib bordi. Afsuski, razolat va zulmga asoslangan jamiyatda uning bu ezgu harakati yana qadr topmadi. Aksincha, 1937-yil 29-iyulda mamlakatning markaziy nashri bo‘lgan “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 166-sonida maxfiy “N.Sh.” imzosi bilan “Oliy suddagi saxiylar” nomli xabar bosildi. Unda yozilishicha, go‘yoki Toshkentdagi 21-do‘kon mudiri Xalikovning faoliyati tekshirilgan va natijada 4416 so‘mlik kamomad aniqlangan. Aybdor 2650 so‘mni to‘lagan holda Oliy sudga shikoyat yozgan. Oliy sudda Muhammedov, Abdurahmonov, Zamonboyev ishni o‘rganib, uni oqlab chiqqani keskin tanqid qilinadi. Vaholanki, sudda Xalikovning g‘arazli maqsadda nohaq ayblangani o‘z isbotini topgan edi.

1937-yil 17-sentyabrda bo‘lgan boshlang‘ich partiya tashkiloti majlisiga chaqirilgan Muhammad Rasul Zamonboyev NKVD tomonidan qamoqqa olingan Sultonbek Xo‘janov va Karim Abdullayevlar bilan tanish bo‘lgan, deb partiyadan haydaladi. 1937-yil 10-oktyabrda Toshkent shahar, Kirov tumani partiya qo‘mitasida yana Zamonboyev masalasi ko‘tariladi va uning o‘tmishi, Saidnosir Mirjalilov oilasiga kuyov bo‘lgani aksilinqilobiy faoliyat sifatida baholanib, Dalayan tomonidan hujjatlashtiriladi. Shundan so‘ng NKVD xufyalari yana ham faollashib, uning aksilfaoliyati haqida chaquvlar yetkaza boshlaydi.

1938-yil 17-yanvar kuni tergovchi Berezikov Muhammad Rasul Zamonboyevni sobiq “Alash o‘rda” a’zosi, 1931–34-yillar aksilinqilobiy tashkilotga a’zo bo‘lgan, deb O‘zSSR JKning 60-, 67-moddalarini qo‘llab, qamoqqa olish to‘g‘risidagi qarorni imzolaydi. 1938-yil 18-yanvar kuni bitilgan order asosida Toshkent shahri, Xoroshin ko‘chasi 19-uyda tintuv o‘tkazilib, hibsga olinadi. Shu kuni to‘ldirilgan shaxsiy anketasida uning oila a’zolari sifatida turmush o‘rtog‘i Zuhra Aymetova (30 yosh), farzandlari Oyisha (13 yosh), Adolat (11 yosh), Erkin (9 yosh) va Po‘lot (2 yosh)larning nomlari qayd etilgan.

1938-yil 28-fevral kuni so‘roqda Zamonboyev qo‘yilayotgan ayblovlarning barchasi tuhmat, hech qanday aksilinqilobiy tashkilot mavjud emas, deydi. Biroq uzoq davom etgan jismoniy qiynoqlar va ruhiy tahqirlashlar ortidan 1938-yil 17–19-mart sanasi bilan yozuv mashinkasida bitilgan bir necha varaqdan iborat so‘roq bayonnomalarini imzolashga majbur bo‘ladi. Unda 1922-yil o‘zi bilan Toshkentga kelib o‘qigan yigitlarning barchasi quloq qilingan boy va qozilarning bolalari bo‘lgani, “Turkiston” savdo shirkati boshliqlari Saidnosir Mirjalilov, Mirzarahim va Abduvahhob Otaboyevlar asosan “bosmachilar”ni kiyim-kechak, ozuqa, otlarini yem bilan ta’minlashga harakat qilgani, sovetlarga qarshi aksilinqilobiy tashkilotga O‘zbekistondan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo‘jayev, Qozog‘istondan Qulumbetov, Qirg‘izistondan O‘rozbekov, Turkmanistondan Aytakov, Tojikistondan Abdulla Rahimboyev kabi birinchi rahbarlar a’zo bo‘lganini, o‘zining 1935–37-yillarda prokuror yordamchiligi vaqtida amalga oshirgan aksilinqilobiy faoliyatini “tan oladi”. (Albatta, keyingi so‘roqlarda yuqoridagi ko‘rsatmalarini rad etadi.)

Muhammad Rasul Zamonboyevning bo‘ynidagi sirtmoq mahkam tortilgan, uning qaysi kuni otilishini belgilashgina qolgan edi.

Biroq uning baxtiga shu vaqtlarda istibdod markazi bo‘lmish Moskvada vaziyat o‘zgarib qoladi. NKVD komissari Yejov ishdan olinadi. Hali oxiriga yetkazilmagan ko‘pgina siyosiy ayblovlar bo‘yicha jinoiy ishlar to‘xtatib qo‘yiladi.

1939-yil 11-iyulda vaziyat o‘zgarganini anglagan Zamonboyev O‘zSSR IIXK nomiga ariza yozib, o‘zining 1938-yil yanvardan hibsda bo‘lib, 1939-yil 19-mayda ish yakunlanganiga qaramay, qismatining hamon noma’lumligini, tergov noqonuniy o‘tkazilganidan norozi ekanini yozadi. Shundan so‘ng uning ishi qaytadan o‘rganishga topshiriladi.

1939-yil 23-avgustda O‘zSSR IIXK o‘rinbosari Boyko imzosi bilan tayyorlangan qarorda Zamonboyev ishi o‘rganilgani, ayblovlar isbotini topmagani, berilgan ko‘rsatmalar dalillanmagani uchun O‘zSSR JKning 60-, 67-moddalari bekor qilinib, jinoiy ish tugatiladi. Shu kunning o‘zida Rasul Zamonboyev Toshkent turmasidan ozod qilinadi.

Darhaqiqat, 1922-yil Toshkentga kelib, “Ko‘mak”da ilm olgan turkistonlik yoshlar orasidan keyinchalik yirik olimlar, taniqli rahbarlar yetishib chiqdi. Jumladan, Karim Abdullayev O‘zSSR Sog‘liqni saqlash xalq komissari, Safo Saidmurodov, Beglar Jo‘nayevlar SAGUda dars berdi. Biroq birortasi o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlariga erisha olmadi. Yana ham aniqrog‘i, qattol tuzum bunga imkon bermadi. Aksar qismini eng kuchga to‘lgan vaqtida, hali 40 yoshga kirar-kirmas, 1937-38-yillardagi “Katta qirg‘in” o‘z domiga tortib ketdi. Tirik qolganlari esa Muhammad Rasul Zamonboyev kabi o‘zining soyasidan ham qo‘rqib, umrini xastalik bilan kurashib o‘tkazishga majbur bo‘ldi.



“Alash o‘rda” partiyasi a’zolari.

Bahrom IRZAYEV,
Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Zaki Sattarov – 1904-yilda tug‘ilgan. Millati tatar. 1928-yil 25-apreldan 1929-yil 1-iyuligacha Kattaqo‘rg‘ondagi Respublika 1-izolyatorida o‘quv tarbiyaviy bo‘lim mudiri, Kattaqo‘rg‘on rayon qishloq xo‘jaligi kredit shirkati raisi, 1930–1932-yillarda Mirbozorda Narpay rayon kolxozlar soyuzi raisi, 1932-yil dekabrigacha Kattaqo‘rg‘on rayoni bo‘yicha shikoyatlar qabul qilish byurosi mudiri, 1932-yil 8-dekabrdan 1933-yil oktyabrgacha “Kolxoz yo‘li” gazetasi tahririyatining Andijon va Asaka shaharlaridagi maxsus muxbiri, 1933-yil 1-oktyabrdan 1934-yil 1-oktyabrgacha Marhamat rayonidagi “Stalinchilar ovozi” gazetasi muharriri, MTS siyosiy bo‘lim boshlig‘i, rayijroqo‘m raisi, 1934-yil 1-oktyabridan 1937-yil 28-martgacha Samarqanddagi “Lenin yo‘li” gazetasi mas’ul muharriri vazifalarida xizmat qilgan. Shaxsiy varaqasida turk, rus, qozoq, o‘zbek, tatar tillarini bilishi qayd etilgan. 1937-yil 27-mayda partiyaviy hushyorlikni susaytirgani, muharrirligida gazeta sahifalarida jadidlik harakati haqida maqola va xabarlar berganlikda ayblanib, unga qat’iy hayfsan e’lon qilingan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 13-oktyabrdagi yig‘ilishida Zaki Qiyomovich Sattarov otuvga hukm qilingan, hukm o‘sha kuni ijro etilgan.

Fayzi Xodi Zarif – 1895-yilda tug‘ilgan. Otasi diniy maktabda o‘qituvchi va masjidda imom bo‘lgan. 7-8 yoshida otadan judo bo‘lib, ona qaramog‘ida qolgan. 1910-yilda yangi usuldagi maktabda o‘qish uchun Ufa shahriga borgan. 1913-yili maktabda ko‘tarilgan ish tashlashda qatnashgani uchun maktabdan haydalgan. Maktabda ish tashlaganlarni ta’qib qilayotganlari sababli u familiyasini Mulla Fozil qilib o‘zgartirgan. 1914–1916-yillarda Skobelov shahrida ta’lim olgan. O‘zbek yoshlari orasida madaniy-ma’rifiy to‘garaklar tashkil qilgan. Milliy burjuaziya inqilobiga muvofiq keluvchi siyosiy tashkilot sifatida to‘garaklarda ishtirok etgan. To‘garak “Ozod” nomli gazeta chiqargan. Muvaqqat hukumatni barcha saylovlarida so‘l qanotda turib ishtirok etgan. Keyinchalik bu to‘garak so‘l qanot sifatida milliy burjuaziyaning “Sho‘royi islomiya” tashkilotiga qo‘shilib ketgan. 1919-yilda Fayzi Xodi Zarif “Ozod Sharq” gazetasiga muharrirlik qilgan. U Buxoro xalq maorifi bo‘limi mudiri, Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi a’zosi, RSFSR sovetlarining VIII s’yezdiga saylangan. S’yezdan qaytib kelgach O‘sh, Andijon va Namangan uyezdlarida bosmachilikka qarshi kurash bo‘yicha Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti va harbiy revolyutsion sovetning favqulodda vakili sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Buxoro hukumatida maxsus bo‘lim boshlig‘i, Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komiteti tashkiliy bo‘lim targ‘ibot va tashviqot bo‘lim mudiri vazifasida ishlagan. 1922-yili noyabrida SSSR sovetlarining I s’yezdiga delegat bo‘lgan, Moskvada Buxoroning ma’rifat uyini tashkil qilgan, Moskvada xalq maorifi komissarligining vakili bo‘lgan. Fayzi Xodi Zarif 1930–1933-yillarda Samarqandda shahar partiya komiteti ijroiya byurosi a’zosi bo‘lgan. 1938-yil 4-oktyabr SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor yig‘ilishida otuvga hukm etilgan.

Muhammad Odiliy – 1896-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. 1917-yil Fevral inqilobigacha rus-tuzem maktabida o‘qigan. Keyinchalik pedagogika institutida tahsil olgan. Toshkent shahridagi “Namuna” maktabida “Temur to‘da” to‘garagida bo‘lgan Muhammad Odiliy yoshlarni yangi usul maktabiga jalb etish va eski usuldagi maktablarga qarshi kurash olib borishda ishtirok etganlikda, 1919-yil o‘rtalarida “Jarariq”dagi 45-sonli maktabda “Temir to‘da”, “Og‘uzxon quli”da dars olib borganlikda ayblangan. 1937-yil 1–21-sentyabr kunlari mahbus Muhammad Odiliy ustidan katta leytenant Filimonov tergov olib borgan. Ayblov xulosasida Muhammad Odiliy sovet hokimiyatini ag‘darib, milliy burjua davlatini tashkil etish uchun yashirin faoliyat olib borishga jalb etganlikda ayblangan. Unga O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 64-, 63-moddalari bilan ayblov qo‘yilgan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktyabrdagi yig‘ilishida otuvga hukm qilingan.

Hikmatulla Xismatov – 1898-yili Samarqandda tug‘ilgan. Millati tatar. Toshkent shahar Abdulla To‘qayev ko‘chasi 9-uyda yashagan. Inqilobgacha Samarqand shahrida istiqomat qilgan. Oliy ma’lumotli, 1918-yildan VKP(b) a’zosi bo‘lgan. 1919-yildan 1921-yilgacha, keyin 1931–1937-yillarda “Ittihod va taraqqiy” va “Ittihod islom” kabi tashkilotlar safida bo‘lganlikda ayblangan. H.Xismatov O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarlariga ariza bilan murojaat qilgan. Mahbusning har ikki murojaati ham e’tiborga olinmagan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

IZHOR



Baxtiyor HASANOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Qatag‘on qurbonlari xotirasi
davlat muzeyi direktori

EZGU ISHLAR DAVOM ETAJAK...

Aziz vatandoshlar, fan, san’at, adabiyot va milliy tariximizning jonkuyar ixlosmandlari!

Mana, yana bir yangi yilni ezgu niyatlar bilan qarshilab turibmiz. Ortda qolgan 2024-yil yurtimiz tarixida zarhal harflar bilan yozishga arzigulik voqealarga boy bo‘ldi.

Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 19-iyundagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarorning qabul qilinishi hamda vatan ozodligi va hurriyati yo‘lida aziz jonlarini fido qilgan mingdan ziyod shahid bobolarimiz pok nomlarining oqlanishi, shubhasiz, yurtimiz tarixidagi misli ko‘rilmagan voqealardan hisoblanadi. Bu ezgu ishlar 2025-yilda ham jadallik bilan davom etajak.

Muhtaram yurtdoshlar, aziz gazetxonlar! Boshlangan yangi yilning ilk kunlaridan turib sizlarga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat, xonadoningizda yaxshi kunlar bo‘lishini, 2025-yilda ham sizlarga quvonch va shodlik hamrohlik qilishini chin dildan tilab qolaman!

2025-yil 1-yanvar
№ 1(53)

HAJV

TOMOSHOGA BORMOQ VA TOMOSHO BO‘LMASLIQ ZIKRIDA

Ey, farzand, bu kun archa bayram bahonayi sabab senga tomosho va uning madaniyati va zavq-u zarofati va shavq-u sharofati va taft-u tarovati va husn-u halovati xususinda bir shingil nasihat bor. Magar ushbu pandlarim bir qulog‘ingdin kirib, ikkinchisidin chiqar bo‘lsa, fahm-u farosating ham zehn-u zakovating ham xulq-u hamiyating qasriga falokat bor.



Eng avvalo, tomosho tanlashni bilg‘il. Bilmasang, ahli donishlardin so‘rg‘il. Quloqni batang qilg‘uchi, fe’l-u xo‘yni satang qilg‘uvchi, o‘tkir aqlni zang qilg‘uvchi, tafakkur ko‘zini chang va hamyonni tang qilg‘uvchi “jinlar bazmi”din yiroq turg‘il. Qaysiki tomoshogohga borsang, o‘yun avvalida g‘oyibdan bir sado kelg‘ay: “Aziz-u muhtaram tomoshabin, tomosho zalinda ispirtli ichimlik ichmak, nos va tamaki chekmak, yo‘laklarni iflos qilmak, kurash tushmak, mushtlashib yoqavayron bo‘lmak, eshakmindi o‘ynashu va musiqasiz raqs tushmak qat’iyan man etiladir!” San bu taqiqdin minba’d ajablanub, bu zalg‘a qanday yovvoyilar jamuljam bo‘lg‘an erkan deb yoqangni axtarmag‘il. Bular Alimi, Isoqdanmi qolg‘an gaplar.

Ey, farzand, teotrg‘a borar bo‘lsang, Behbudiy hazratning “Teotr bu – ibratxonadur” deyilmish naqli dasturi amaling bo‘lsun. Yodingda tutg‘il, san tomosho zalida akto‘r emassan, hammani o‘zingga qaratishdin tiyilg‘il. Odmi kiyin, qulay va loyiq libosda bo‘lg‘il. Borishdan burun qo‘yilajak asar to‘g‘risinda, muallifi haqinda va boshqa ijodkorlar xususinda o‘qub, tafakkur etg‘il. Dabdurustdan borsang, teotr tomidin “muborak” boshingga tarasha tushmasun, deyman. Angrayib qolmag‘il, deyman. Borar bo‘lsang, gulshanda guldek, bog‘da g‘unchadek go‘zal o‘tirg‘il.

Bayt:

“Magic city”da yurmag‘il
oq saqichni hubob aylab,
Ham masxara bo‘lmag‘aysan,
zo‘ntigingni rubob aylab.

Ey, farzandi arjumandim, qorin-qursog‘ni uyda to‘ldirib, nafs-u xirs-u havasni ko‘cha-ko‘yda o‘ldirib borg‘il. “To‘yga borsang, to‘yib bor, yomonliging qo‘yib bor, yamoq to‘ning kiyib bor”, degan naql-u nasihat bor. Ore rost so‘z ushbukim, teotr ham bamisoli to‘yxona. Mehmonga borar bo‘lsang, o‘zingni bir qadar sipo tutarsan, ibratxonada esa ming chandon halim bo‘lg‘il. Borgan xonadoningda hech vaqt saqich chaynarmisan? Ani mezbon uyining kursilarig‘a yopishtirib qo‘yarmisan? O‘rindiqlarig‘a beadablik birla “M + A = S” deya chizib ketarmisan? Mezbon gapirganda luqma tashlarmisan? O‘zingdin har turlik chiqindi qoldirarmisan?

Ey, farzand, konsertga borar bo‘lsang, o‘yunchining xiromig‘a esh bo‘lub, novozanda-yu sozandaga xesh bo‘lub, xonandaga pesh bo‘lub (pesh – xofiz ahlining jargon so‘zi bo‘lib, ustazoda san’atkor ma’nosini bildiradi, – izoh bizdan) xushtagingni jo‘r etmag‘il. Harchand yangi olg‘an ersang-da, tilponingni san’atkorg‘a peshlamag‘il. Fanorchi ota emassanki, kunduzi chiroq yoqib o‘zingga farosat istasang. Yaratganga beadad shukurlar bo‘lsinkim, ahli sahnaning o‘z fanorlari bor. Kimsan Xudoybergan Devonovg‘a shogirdi mutlaq bo‘lsang ham o‘zgalarning ma’naviy mulkini tasvirg‘a olmag‘il, tasmag‘a solmag‘il. Zotan, muallif ruxsatig‘a muyassarlar mundin mustasno.

O‘perag‘a tushsang, tek o‘tirg‘il, yoqmasa chiqib ketma, chiqib ketar bo‘lsang, yaxshisi, bormag‘il. Magar chiptasi tekin ersa, toshni-da yutgiday o‘zingni urmag‘il va ham bezrayib turmag‘il, falon pulg‘a xarid qilg‘an bo‘lsang-da, shu so‘z – aqshasi kuyg‘an bir kimarsa bir nimarsani yutibdur, degan naql-u hikmatga ergashmag‘il. Cho‘ng ovozli xonandalar navozish aylaydirg‘on, muhtasham ariyalar (ari uyasi emas, – bu izoh ham bizdandur) qo‘yiladurg‘on, jang nog‘orasi-yu burg‘usi yangraydirg‘on, chigal-chigal, chuvalang-chuvalang karnay-surnaylar na’ra tortadirg‘on, chittakdayin, chug‘urchuqdayin, ta’bir joiz bo‘lsa, chigirtkadayin pariyvashlar belozim likillaydurg‘on tomosholarg‘a (18+) murg‘ak farzandi arjumandingni hargiz olib bormag‘il. Iloyo, mundin aning ko‘z-u ko‘ngli, qulog‘-u zehni aziyat topmasun. Norasida ko‘rarmanlar uchun maxsus aql-u hushig‘a xush yoqadig‘an tomoshogohlar bor, shularg‘a oborg‘il.

Ey, farzand, kinog‘a borsang, harchand hamrohangning oyoq-qo‘li, bilag-u kuragi uyushib turg‘an bo‘lsada, zinhor-bazinhor qutlug‘ dargohda uqalab qo‘ymag‘il. Ola nazarlardin bo‘lmag‘il, o‘zingni tiyg‘il. Saning beadab barmoqlaring aning nozuk yelkalari, to‘lqin-to‘lqin sochlari, oydek nurafshon, marmar kabi silliq, ipakdayin mayin, ukpar misol toza, qor yanglig‘ oppoq, marvarid singari bejirim yuzlari uzra sirg‘almasun va ham sovuqda yorilg‘an lablaring aning ilkida sayr etmoqqa hargiz jur’at aylamasun. Yana shuni yodda tutg‘ilkim, kino pardasi tushg‘anda, hayo va ibo, noz-u istig‘no pardalari ko‘tarilmasun! Bori azm-u shijoatingni chimildiq pardasi ortig‘a yashirg‘il.

Ey, farzandi arjumandim, har qaysi tomosho zalig‘a kirarda “Gardero‘b” atalmish bir maxsus xonaqo hozirturur. Anda hozir-u nozir xizmatchig‘a har qancha qimmat bo‘lmasun, sirma-yu pochapo‘stining, tug‘ilmag‘an qo‘zi tersidan ishlang‘an mo‘ydor telpaging, Qorako‘l barxanlarining tuzini yalag‘an chuvalang qo‘chqor terisini oshlab tikilg‘an, paxta yog‘i ila moylang‘an ag‘darma etigingni bexijolat ishonib topshirishing mumkin. Chiqqaningda kamoli ehtirom va ham shirin-shakar lutf ila ashyolaringni sanga qaytarub berg‘ay.

Yana shuni yodda tutg‘ilki, tomosho vaqtida ko‘ruvchilarg‘a ziyon-u zahmat yetkazib, alarning oyog‘ini bosib, oldini to‘sib, u boshdin bu boshg‘a o‘tmoq, tomoshogohni boshg‘a ko‘tarmak ham durust ish ermas. Bor ilm-u amalini ishg‘a solib, barchani hayratg‘a qo‘yg‘an san’atkorni boshg‘a ko‘tarsang, bosh ustina... Tomoshoning yarmisinda xonlardek kerishib kirmoq, to‘ralardek to‘rlamoq va yoxud yarmisinda qovun po‘choq ustidin xom suv berilg‘an tirraqi buzoqdek murodxonani shitob ila tark aylamoqda nojoiz amal hisoblanur.

Ey, farzandi arjumandim, aytganlarim senga malol kelmasun, magar alarg‘a amal qilsang, ikki dunyo saodatig‘a erishib, mutrib va muzaffar bo‘lg‘aysen.

Tilak:

Murodim shulki, murodingg‘a yetg‘aysen!

Seshanba,
Hijriy 1446-yil,
Jumodus-soniy oyining 29-kuni,
Milodiy 2024-yil 31-dekabr shomida sarxush bitdim.

Otaqo‘zi Dodaxo‘ja o‘g‘li
BOBOQAND

IZHOR

ULKAN YUTUQLAR YILI BO‘LSIN!



O‘tkir ROZIQOV,
matematika fanlari doktori,
akademik,
TWAS a’zosi:

Aziz vatandoshlar, hurmatli gazetxonlar! Sizlarni Yangi yil bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman! 2025-yil har bir oila, har bir yurtdoshimiz uchun quvonch va baxtga to‘la, orzular ijobat bo‘ladigan va ulkan yutuqlar yili bo‘lsin!

Bugungi kunda O‘zbekistonimizda amalga oshirilayotgan islohotlar millatimiz istiqbolini yuksak marralarga olib chiqishga qaratilgan. Bu islohotlar har bir soha va har bir fuqaro hayotida yangilik va taraqqiyot ruhi bilan aks etmoqda. Kelajakka qadam tashlayotgan ushbu yilda ham mehnatimiz va birdamligimiz bilan yurtimiz ravnaqini yanada mustahkamlashda hammaga kuch-g‘ayrat va sog‘lik tilayman.

“Jadid” gazetasining muhtaram o‘quvchilari, yangi yilda barcha ezgu niyatlaringiz ro‘yobga chiqsin! Oilalarimiz farovon, Vatanimiz tinch va obod bo‘lsin!

TILBILIM

KIRPI VA KIPRIK



Qishloqda yoz mahali kechki ovqatni oilamiz bilan hovlida, so‘ri ustida tanovul qilardik. Hovlimizning ikki tomonidan oqib o‘tadigan ariq atrofida turli o‘tlar o‘sib yotardi. Deyarli har kuni shu o‘tlar orasidan biz o‘tirgan so‘ri tomon tipratikan pildirab kelayotganini ko‘rardik. Qo‘rqmasdi, xuddi it-mushuklardek biror nima berarmikan, degan ilinjda qarab turaverardi. Bizda – Buxoro tomonlarda tipratikanni “kirpi” deyishardi. Nega shunday, deb so‘rardik. Bilmadim, bizning shevada shunaqa bo‘lsa kerak, deb javob berardi kattalar. Kitoblarda, radio va televideniyeda esa bu jonzotni tipratikan deb atashardi.

...Universitetning birinchi bosqichida tahsil olib yurgan paytlarimiz. Adabiyot tarixi fanidan “Devonu lug‘otit turk”ni o‘qish vazifa qilib berildi. Toshkentning Beshyog‘och dahasida joylashgan respublika Xalq ta’limi markazining yaxshigina kutubxonasi bor. “Devonu lug‘atit turk”ni izlab shu kutubxonaga bordim. Kutubxonachi ayol yarim soatcha qidirib, uchta katta kitobni olib chiqdi. O‘qish tugul, anchadan beri changlardan tozalanmagan lug‘atni asta varaqladim. Varaqlayotib, “kirpi” so‘zini uchratib qoldim. Qarasam, “tipratikan” deb izoh berilgan ekan. Demak, sof turkiy so‘zni biz o‘z shevamizda ishlatar ekanmiz, deb quvonib ketdim.

Lug‘atda “kirpi” so‘ziga “ko‘p tikan” degan izoh berilgan. Demak, sanchiladigan tikani bo‘lgani uchun ushbu jonzot tipratikan deb atalgan ekan. Hozir “kiprik” deydigan so‘zimiz ham aslan shu so‘z – “kirpi” bilan o‘zakdosh.

Hazrat Navoiy bir o‘rinda shunday deydi:

Vahki, har kirpigi bir nishtar
erur zahrolud,
Garchi bor ul iki nargisda
shakarxob to‘la.

Vaqt o‘tishi natijasida so‘zda metateza hodisasi (tovushlarning o‘rin almashishi) yuz bergan: “kirpik” – “kiprik”. Qozoq qardoshlarimiz hozir ham “kirpik” deyishadi. Demak, “kiprik”larimiz ham “tikan”ga o‘xshagani uchun shunday atalgan bo‘lishi haqiqatga yaqin.

Husan MAQSUD

TARMOQLARDA NIMA GAP?

BEHUDA BAHS NE KERAK?

Har safar dekabr oyi oxirlayversa, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo‘lgan yurtdoshlarimiz ikki guruhga bo‘linib, ko‘hna bir bahsga kirisha ketadi: Yangi yil bayramini nishonlash joizmi yoki yo‘q?

Tarmoqda o‘zidan “fatvo beruvchi” yasab olgan, lekin real hayotda tahorat olishni ham bilmaydigan “internet shayx”larining hukmnamo chiqishlari bayram mushaklaridek potirlab ketadi.



Haqiqiy ilm ahlidan bu borada so‘ralganda, ular bu bayramning dinga aloqasi yo‘qligini, bu dunyoviy bir urf-odat ekanini, bayram qilish-qilmaslik har kimning ko‘ngil ko‘chasiga bog‘liqligini ta’kidlashadi.

Shaxsan men bu bayramni turli orzu-maqsadlar bilan boshlangan yilning sarhisob davri, kelgusi rejalar, niyatlar ibtidosi, deb tushunaman. Shunga monand boshlanajak yangi kalendar yilni xursandlik bilan kutib olish, qolaversa, ertaklar olamida yashovchi beg‘ubor bolalarimning shodligini chandon oshirish uchun uyni bayramona bezatish, turli shirinliklar ulashib, ularni quvontirishni afzal bilaman.

Mayli, o‘sha “internet shayx”lari juda istayotgan bo‘lsa, yangi yilni bayram sifatida nishonlamasin. Bayram kunlari tansiq taom pishirmasin, chiroqlarini yoqmasin, bolalarini bayramona bezatilgan ko‘chalar bo‘ylab sayrga olib chiqmasin. Lekin shuni unutmasinki, bu bayram ular talqin qilayotganidek diniy aqidalarga zid, g‘ayridinlarninggina bayrami emas. Bugun butun dunyo musulmonlari yangi yil arafasida bir-biriga ezgu tilaklarni yo‘llab, boshlanajak yil barokatli kelishini so‘rab niyat qilishadi. Ezgu niyat qilishning esa biror dinda taqiqlanganini shaxsan men bilmayman. Iso alayhissalomning tug‘ilgan kuni degan iddaoga javoban, u zoti sharif ham Xudoning payg‘ambarlaridan biri, u kishining mavlud ayyomlarini nishonlash ham unchalik munkar bo‘lmasa kerak.

Shuning uchun ko‘ngilni keng qilib, boshlanajak yilni yaxshi kayfiyatda kutib olaylik. Bolalarga she’rlar ayttirib, ular bilan birga bola bo‘lib o‘ynab-kulaylik. Eng tansiq taomlar bilan qarindosh-u qo‘shnilarni mehmon qilaylik. Shu o‘rinda men ham mast qiluvchi ichimliklardan tiyilish tarafdori ekanimni aytib qo‘yay. Asosiysi, bayram bir-birimizni yo‘qlash, oqibat ko‘rsatish, silayi rahm ayyomiga aylansin. Yangi yil muborak bo‘lsin, aziz hamyurtim!

Bekmurod BO‘RIBOYEV,
Facebook

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 10-yanvar, juma kuni chiqadi.

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 7 477
Lotin yozuvidagi adadi – 12 569
Media kuzatuvchilar – 19 285
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz